

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA

MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI



Al-Xorazmiy nomli Urganch davlat universiteti

Filologiya va san’at fakulteti

401- o‘zbek guruhi talabasi Tangriberganova Shukurjonning
bakalavr akademik ilmiy darajasini olish uchun yozgan
“Hayrat ul abror dostonidagi maqolat va hikoyatlarining o`rta
maktablarda o`rganilishi” mavzusidagi

Bitiruv malakaviy ISHI

Bajardi:
Ilmiy rahbar:

Tangriberganova Shukurjon
prof. S.R.Ro‘zimboyev

URGANCH-2012.

Hayrat ul-abror» dostonidagi maqolat va hikoyatlarning o`rta maktablarda o`rganilishi

Reja:

Kirish.

I Bob. “Hayrat ul-abror”ning janr xususiyati va kompozitsion qurilishi

- 1.1. Dostonda Navoiy falsafiy qarashlarining ifodasi
- 1.2. Asardagi ijtimoiy-siyosiy masalalar
- 1.3. “Hayrat ul-abror”da axloq-odob va ta’lim-tarbiya masalalari

II Bob. “Hayrat ul-abror” dostonining o`rta maktablarda o`rganilishi

- 2.1. “Sher bilan durroj” masalida to`g`rilik va egrilik, rostgo`ylik ta’rifida
- 2.2. “Shoh G`oziy” hikoyasida adolat tarannumi
- 2.3. “Hayrat ul-abror” dostonining obrazlar sistemasi

XULOSA.....

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI.....

Kirish

Mana necha asrdirki, Alisher Navoiy xalq faxri, tilimizning bayroqdori, she'riyat mulkining sultoni, madaniyat va ma'naviyatimizning porloq quyoshi bo'lib kelmoqda. Yurtboshimiz ta'kidlaganlaridek, “Agar bu ulug` zotni avliyo desak, u avliyolarning avliyosi, mutafakkir desak, mutafakkirlarning mutafakkiri, shoir desak, shoirlarning sultonidir”.¹ Navoiy fikri ochiq, ruhoniyligi sog'lom, to'g'rilik, rostlik va haqiqatni umr mohiyati deb bilgan, el uchun ijod qilish zaruriyatini chuqur his etgan ijodkor edi. So'z bilan odamni aldash, so'z bilan yolg'onni haqiqatga aylantirishga urinish millat manfaati uchun katta ziyon va kechirilmas qabohat ekanligini Navoiy har narsadan ortiqroq tushungan. Ulug` shoir butun ijodiyoti mobaynida “So'zda, Navoiy, ne desang, chin degil” degan talab va shioridan mutlaqo chekinmagan. Uning asarlari insonparvarlik, do'stlik, xalqlar do'stligi g'oyalari bilan sug'orilgan bo'lib, ularda haqiqiy sevgi, adolat kabi eng oliy insoniy xislatlar o'zining munosib ifodasini topgan. Insonni ulug'lash va sevgini tarannum etish Navoiy ijodining markazida turgan eng hayotiy mavzulardan biridir.

Alisher Navoiy shaxsiyati va uning ijodiga bo'lgan qiziqish u hali hayotligidayoq boshlangan edi. Navoiy hayoti va ijodini jiddiy o'rganish esa XX asrning 20-yillarida boshlandi. Buyuk shoir ijodini o'rganish bilan shug'ullanadigan fan – navoiyshunoslik paydo bo'ldi. Ulug` shoirning “Xamsa”sini ilmiy, ilmiy-ommabop yo'sinda o'rganish sohasidagi dastlabki dadil qadamni o'zbek xalqining serqirra adibi va birinchi professori Abdurauf Fitrat qo'ydi. Uning “Farhod va Shirin” dostoniga doir qiyosiy tahlil asosida yaratilgan “Farhod va Shirin” dostoni to'g'risida” nomli salmoqli maqolasi shu yo'nalishdagi jiddiy tadqiqotlardan biridir.² Navoiy tavalludining 500 yilligi arafasida navoiyshunoslik borasidagi ishlar yanada jonlandi. Sadriddin Ayniy Alisher Navoiy “Xamsa”siing nazm-u nasrdan iborat qisqartirilgan nusxasini yaratdi va mazkur ish lotin yozuvida 1939-yilda nashr qilindi. Shuningdek, Navoiyning “Chor devon”, “Muhokamat ul-lug'atayn”, “Mahbub ul-qulub” yana bir

¹ Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Т: Маънавият, 2009. 47-6.

² Фитрат. “Фарход ва Ширин” дostonи тўғрисида. Маърифат. 1996. 7-28 дек.

qator asarlari ham chop etildi. Maqsud Shayxzoda “Genial shoir” nomli asarini yozdi. V.Abdullaev Navoiyning Samarqanddagi hayoti va faoliyati haqidagi nomzodlik dissertatsiyasini himoya qildi.

Ulug` shoir tavalludining 500 yilligi 1948-yil may oyida o`tkazildi. Shu yili Oybek tahriri ostida “Ulug` o`zbek shoiri” nomli ikkita maqolalar to`plami (o`zbek va rus tillarida), Ozod Sharafiddinov, E.E. Bertels, Sadriddin Ayniylarning ilmiy risolalari chop qilindi.³ Shoirning 525 yillik umr to`yi tantanalari shahdam ilgarilayotgan navoiyshunoslikni yangi pillapoyalarga olib chiqdi. Taniqli adabiyotshunos Porsoxon Shamsiev tomonidan amalga oshirilgan “Xamsa”ning mukammal nashri, Hamid Sulaymon sa’y-harakati bilan “Xazoyin ul-maoniy”ning akademik nashri hamda Alisher Navoiy asarlarining o`zbek tilidagi 15 tomligining nashr etilishi o`zbek xalqining madaniy hayoti tarixida juda katta ijtimoiy-ma’naviy voqea bo`ldi.⁴ Navoiy adabiy an’alarining davomi va takomili xususida Yo.Ishoqov, M.Shayxzoda, A.Hayitmetov, V.Abdullaev, B.Valixo`jaev, H.Yoqubov, A.Qayumov, H.Rasulov, E. Ibrohimova, R. Majidiy singari o`nlab olimlarning katta-kichik tadqiqotlari vujudga keldi. Oybekning “Navoiy gulshani” maqolalar to`plami (1967), uning ukrain adibi A.Deych bilan birga yozilgan “Alisher Navoiy” ilmiy-ommabop ocherki (1968), T.Jalolovning “Xamsa” talqinlari” (1962) S.G`anievaning “Alisher Navoiy” (1969), N.Mallaevning “Genial shoir va mutafakkir” (1968) kabi o`nlab mazmundor kitoblari shular jumlasidandir.

V.Zohidovning “Ulug` shoir ijodining qalbi” (1970), A.Hayitmetovning “Tabarruk izlar izidan”, “Navoiy dahosi”, “Meros va ixlos” kabi tadqiqotlari hamda “Hayrat ul-abror” dostonining nasriy tavsifi (1974), A.Abdug`afurovning “Navoiy ijodida satira” (1972), S.Erkinovning “Navoiy “Farhod va Shirin”i va uning qiyosiy tahlili” (1971), N.Mallaevning “Navoiy ijodining xalqchil negizi” (1973), “Alisher Navoiy va xalq ijodiyoti” (1974) hamda “So`z san’atining gultoji” (1991), A.Rustamovning “Navoiyning badiiy mahorati” (1979) singari yirik ilmiy tadqiqotlari

³ Озод Шарафиддинов. Алишер Навоий. Ҳаёти ва ижодиёти. – Е: 1948., Е.Е.Бертельс. Опыт творческой биографии. – М: 1948., Садриддин Айний. Алишер Навоий. Сталинобод. 1948.

⁴ Порсохон Шамсиев. Хамса. – Т: Фан. 1960., Ҳамид Сулаймон. 4 китоб. – Т: Фан. 1959-1960.

vujudga keldi. A. Qayumov “Xamsa” tarkibidagi har bir doston talqiniga bag`ishlangan bittadan ilmiy-ommabop risola yozdi. 1976-yilda “Navoiy va ijod saboqlari”, 1986-yilda esa “Navoiy “Xamsa”si” nomli yirik ilmiy to`plamlar nashr etildi. S.Hasanovning 1991-yilda nashr etilgan “Navoiyning etti tuhfasi” asari ham “Xamsa” talqinlariga bag`ishlanganligi bilan ahamiyatlidir. Istiqlol yillarida shoir ijodining dolzarb muammolariga bag`ishlangan juda ko`p doktorlik va nomzodlik dissertatsiyalari himoya qilindi. Shuningdek, shoir lirikasining o`rganilishida adabiyotshunos I.Haqqulovning xizmatlari katta bo`ldi.<sup>5</sup> 1991-yilda nashr etilgan Alisher Navoiy. G`azallar. Sharhlar kitobidan S.G`anieva, E.Vohidov, N.Komilov, M.Ali, J.Kamol, A.Abdug`afurov, I.Haqqulov, N.Jumaev, M.Abdulhakim kabi olim va ijodkorlarning maqolalari o`rin olgan. Istiqlol yillarida Alisher Navoiyning 20 jildlik Mukammal asarlar to`plami nashr etilishi ham navoiyshunoslik borasida amalga oshirilgan salmoqli ishlardan biri bo`ldi. Navoiyshunoslik fani oltinchi yuz yillikka qadam qo`yishi munosabati bilan taniqli olim A.Hayitmetov uning taraqqiyot yo`nalishini belgilab beruvchi “Alisher Navoiy ijodini o`rganishning metodologik asoslari haqida” nomli yirik maqolasini e`lon qildi.⁶ Navoiyshunos olim ushbu maqolasida navoiyshunoslik ilmi erishgan yutuqlarni umumlashtirib, uning taraqqiyot omillariga munosib baho bergan.

Demak, navoiyshunoslikda shoirning “Xamsa”siga kirgan dostonlari haqida ma`lum ilmiy ahamiyatga molik qator maqola va tadqiqotlar yaratilgan. Xususan, “Hayrat ul-abror” dostoni va undagi maqolat va hikoyatlarning mazmun-mundariyasi xususida ham fikrlar bildirilgan.

Biz bitiruv-malakaviy ishimizda o`rta maktablarda mazkur dostonga kirgan maqolat va hikoyatlarning o`rganilishi va uning ahamiyati masalasini yoritib berishni o`z oldimizga maqsad qilib qo`ydik.

Shu maqsad yo`lida quyidagi vazifalarni belgilab oldik:

⁵ Haqqulov I. Zanjirband sher qoshida. 1989., She`riyat ruhiy munosabat. 1989., Abadiyat farzandlari. 1990. Tasavvuf va she`riyat. 1991. Navoiyga qaytiш. – T: Fan. 2007.

⁶ Hayitmetov A. Alisher Navoiy ijodini o`rganishning metodologik asoslari. ЎТА. 2001.2-сон. 3-10-б.

- Navoiyshunoslikda, xususan, “Xamsa” dostonlarini o`rganishda hozirgacha qilingan ishlar bilan tanishib chiqish va ularga xolisona munosabat bildirish;
- “Hayrat ul-abror” dostonida Navoiy falsafiy qarashlarining ifodasi xususida fikrlarimizni bildirish;
- asardagi ijtimoiy-siyosiy, shuningdek, axloq-odob va ta’lim-tarbiya masalalariga ijodkorning munosabati masalasini asardagi maqolat va hikoyatlar asosida yoritib berish;
- darslikda keltirilgan to`g`rilik va egrilik, rostgo`ylik ta’rifida berilgan maqolatni tahlil etish;
- “Shoh G`oziy” hikoyasi asosida o`quvchilarda adolat tuyg`usini tarbiyalashga erishish;
- “Hayrat ul-abror” dostonining obrazlar tizimini aniqlash va ularga xos xususiyatlar to`g`risida xulosa chiqarish;
- Navoiy merosini o`rta maktablarda o`rganishning ahamiyati xususida bahs yuritish.

Respublikamiz Prezidenti I.A.Karimovning milliy g`oya va istiqlol mafkurasini shakllantirish hamda adabiy-madaniy merosdan foydalanish, shu asosda yosh avlodni ma’naviy barkamol insonlar qilib tarbiyalash haqidagi asarlari ishning metodologik asosini tashkil etadi. Ishni yozish jarayonida yuqorida nomlari zikr etilgan olimlarimizning o`zbek mumtoz adabiyoti namoyandalarining ijodiy merosini o`rganish bo`yicha to`plagan qator ilmiy ishlaridagi xulosalari va tajribalariga tayandik.

Tadqiqot uchun Navoiyning Fan nashriyotida chop etilgan 20 jildlik “Mukammal asarlar to`plami”ning 7-jildidan (“Hayrat ul-abror” Toshkent -1990) manba sifatida foydalanildi.

I Bob. “Hayrat ul-abror”ning janr xususiyati va kompozitsion qurilishi

1.1. Dostonda Navoiy falsafiy qarashlarining ifodasi

«Hayrat ul-abror» qomusiy asar bo'lib, uning asosiy qismini tashkil etuvchi maqolat va hikoyatlarda barcha zamonlar uchun o'ta dolzarb bo'lgan barkamol avlod, komil inson haqidagi ulug' mutafakkirning teran axloqiy-ma'naviy, ijtimoiy-falsafiy mulohazalari badiiy ifodasini topgan. Turkiy adabiyot tarixida bunday asarlar ramziy-majoziy obrazlarning turli masalalarga oid savol-javobi (Yusuf Xos Hojib «Qutadg'u bilig») yoki asar muallifining hadislarga tayanib insonning ma'naviy kamolatga yetkazuvchi fazilatlari hamda uni jaholat botqog'iga chorlovchi nuqsonlarini qiyoslash (Ahmad Yugnakiy «Hibat ul-haqoyiq») uslubi bilan vujudga kelgan bo'lsa, Nizomiy Ganjaviy ilk dostonining erkin-ijodiy tarjimasi bo'lgan Haydar Xorazmiyning «Maxzan ul-asror»ida kuzatilgani singari «Hayrat ul-abror»da ham ijodkorning barkamol shaxs haqidagi o'ylari maqolatlarda yorqin in'ikosini topgan. Asardagi hikoyatlar esa maqolatlarda ilgari surilgan tayanch g'oyalarni o'quvchi shuuriga yanada teranroq ta'sir etishi, uning mavzu bilan mukammalroq tanishishiga imkon yaratadi.

“Hayrat ul-abror» («Yaxshi kishilarning hayratlanishi») janr xususiyati va kompozitsiya tuzilishi jihatidan «Xamsa»ning boshka dostonlaridan tubdan farq qiladi. «Hayratul-abror» falsafiy-ta'limiy dostondir. Bu asarida Navoiy falsafiy, ijtimoiy-siyosiy va axloqiy-ta'limiy qarashlarini bayon etish, kishilarga ta'lim va ugit berishni uz oldiga maqsad qilib quyadi. Odatda bunday dostonda, kupincha, tema biror voqea sujetini hikoya qilish asosida emas, balki yozuvchining fikr-mulohazalari bayoni asosida yoritiladi. Bu holat «Hayratul-abror»ning janriga xos ikkinchi bir xususiyatni vujudga keltiradi, lirik ifodani, tavsif va ta'rifni asosiy va etakchi ifoda usuliga, epik tasvirni esa kushimcha va yordamchi usulga aylantiradi. «Hayratul-abror»da hayot, vokelik shoirning epik bayoni—hikoyasi emas, balki uniig fikr-mulohazalari, his-tuygusi va ta'rif-tavsifi orkali yoritiladi. Shu ma'noda «Hayratul-abror» lirik-tavsifiy dostondir. Biroq bu xolat unda epik tasvirni, hikoya va masallarni mustasno qilib quymaydi. Zero, V. G. Belinskiy

aytganidek, poeziyaning uch turi: «Mustaqil elementlar sifatida, ayrim-ayrim mavjud bulsalar ham, lekin alohida asarlarda kurinish berib, ular bir-birlaridan keskin chegaralar bilan ajralmaydilar.(Bu o`rinda poeziya deganda umuman, badiiy adabiyot nazarda tutilmoqda). Aksincha, ular kupincha aralash holda uchraydilar...»⁷

«Hayratul-abror»ning bunday janr xususiyati uniig kompozitsion tuzilishini ham belgilaydi. «Hayratul-abror»ning har bir bobi maxsus bir masalaga bagishlanadi. 7976 misradan tashkil topgan «Hayratul-abror» 64 bobga bulingan. Bulardan 21 bobi — mukaddima, 40 bobi — 20 maqolot va 20 hikoya hamda masal, sunggi uch bobi esa dostonning xotimasidir. Dostonning asosini 20 makolat tashkil etadi, hikoya va masallar esa ilova tarzida beriladi.

Muqaddima xudo, paygambar va xalifalar hakidagi an'anaviy qismlardan tashqari Nizomiy Ganjaviy, Husrav Dehlaviy va Abdurahmon Jomiylarga bagishlangan boblarni, Husayn Boyqaro madhi, suz ta'rifi, suzning ma'nosi kungil ta'rifi va boshqa boblarni uz ichiga oladi.

Maqolotlar va ularga ilova kilingan hikoya hamda masallarning sirasi esa quyidagicha:

1. Imon hakida. Ilova — Sulton Boyazid hikoyasi.
2. Islom bobida. Ilova — Ibrohim Adham hikoyasi.
3. Salotin (sultonlar) bobida. Ilova — Shoh Goziy hikoyasi.
4. Riyoyi xirqapushlar (shayxlar) sulukida. Ilova — Xuja Abdullo Ansoriy hikoyasi.
5. Karam vafida. Ilova — Hotami Toy hikoyasi.
6. Odob haqida. Ilova — Nushirvon hikoyasi.
7. Qanoat bobida. Ilova — qoni' va tamagir hikoyasi.
8. Vafo haqida. Ilova — ikki vafodor yor hikoyasi.
9. Ishq uti ta'rifida. Ilova — Shayx Iroqiy hikoyasi.

⁷ Белинский В.Г. Танланган асарлар. Ўздавнашр. Т., 1955. 151-бет.

10. Rostlik ta'rifida. Ilova — Sher va Durroj masali.
11. Ilm xaqida. Ilova — Imom Faxriddits Roziy hikoyasi.
12. Qalam va qalam ahli xaqida. Ilova — Yoqut hikoyasi.
13. Sahobdek naf'rasonlar bobida. Ilova — Ayub hikoyasi.
14. Falakdan shikoyat. Ilova — Iskandar hikoyasi.
15. Mayxurlar xaqida. Ilova — Bani Isroili rind hikoyasi.
16. Xudnamolar haqida. Ilova — Abdulloh Mubrak hikoyasi.
17. Tabiat tasvirida. Ilova — Imom Zaynul Obidin hikoyasi.
18. Falak gamxonasida. Ilova — Chin guzali hikoyasi.
19. Xuroson ta'rifida. Ilova — Bahrom hikoyasi.
20. Badiuzzamon ta'rifi. Ilova — Xuja Muxammad Porso hikoyasi.

«Hayratul-abror»ning uch kompozitsiya zanjiri bor:

- a) dostonning umumiy kompozitsiyasi; b) maqolatlarning kompozitsiyasi; v) hikoya va masallar kompozitsiyasi.

«Hayratul-abror» g'oyaviy mazmuni, boblarning uzaro g'oyaviy boglanib borishi, biridan ikkinchi birining kelib chikishi, takomillashuvi va xususan bosh kahramon shoir va mutafakkir Navoiy obrazi bilan umumiy, yagona kompozitsiya zanjiriga egadir. Bu jihatdan qaraganda hatto dostonning an'anaviy muqaddimasi bulgan hamd, munojot va na'tlar ham uning asosiy boblari — maqolatlari bilan ma'lum darajada uzviy boglanadi. Chunki, ularda ham dostonning maqolotlarida etakchi bulgan insonparvarlik, xalkparvarlik, ma'rifatparvarlik va didaktik mushohadalarning kurtaklari bor. Misol uchun to'rtinchi munojotning quyidagi misralarini olaylik:

...Lutfu karam ganjini netkung durur?	Kimga
atovu karam etkung durur?	Bir necha
muhtaju asiru gado?	Yuzlari silliyi
gunahdin qaro...	

Xon anga yoygilki erur mushtahi,

To`q emas, ar esa bo`lur mumtahi...

Apsab anga luqmaki ul och erur,

Avli

anga to`nki yalang`och erur...⁸

Bu misralarda Navoiy beva-bechoralarning, och-yalangochlarning ahvoliga achinib, ularning farovon bulishlarini orzu kiladi. Nizomiy, Xusrav Dexlaviy, Abdurahmon Jomiy, suz va kungil ta`rifiga doir muqaddima boblar esa dostonning asosiyismi bilan bevosita va uzviy boglanadi. Maqolatlar uz ichki kompozitsiyasiga ega bulib, ularga ilova qilingan mustaqil kompozitsiyali hikoya va masallar maqolatlarning, shu bilan birga dostonning umumiy kompozitsiyasini tuldiradi va takomillashtiradi.

«Hayratul-abror» mutafakkir, donishmand va murabbiy shoirning dostonidir. Bu dostonda Navoiyning turli-tuman masalalarga doir fikr-mulohazalari bayoi etilgan. Dostonning boblarida yoritilgan masalalarni shartli ravishda uch turkumga — falsafiy, ijtimoiy-siyosiy, axloqiy-ta`limiy masalalarga ajratish mumkin.

Ob`ektiv borliq va iloxiyot, inson va uning uzligi, din, tasavvuf va boshqa masalalar Navoiy falsafiy qarashlarining asosiy masalalar doirasini tashkil etadi. Bu masalalar «Hayratul-abror»da ham ma`lum darajada uz urni va ifodasini topgan. Navoiyning falsafiy karashlari nixoyatda murakkabdir. Navoiy xudo va dinni e`tirof qiladi. U uzining insonparvarligi, xalkparvarligi bilan yashagan muhiti falsafiy karashlari saviyasidan yukori kutariladi, tarakkiyparvar ulug mutafakkir sifatida gavdalanadi.

Navoiyning fikricha, iloxiyot— xudo butun borlikning yagona moyasi dir. Avval boshlab yolgiz xudoning uzidan bulak boshka xech kim va xech parsa bulmagan. Xudo hadsiz kuch-kudrat va imkoniyatlarga ega bulgan. Xudo uz kuch-kudrati va imkoniyatlarini namoyish ztib, butun borlikni yaratdi. Bu borlik xuddi bir oyna (mir`ot) bulib, unda iloxiyot zuxur etgan:

Ne bo`lib avvalda bidoyat sanga,

⁸ Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. 20 томлик. 7. том. Тошкент:

Ne kelib oxirda nihoyat sanga.

Avval o`zung, oxiru mobayn o`zung,
Borchag`a xoliq, borig`a ayn o`zung.⁹

Shunday kilib, Navoiy ham ob`ektiv borliqni e`tirof kiladi, ham uni iloxiylashtiradi. Navoiy qarashlari mavjud olamga, xususan, insonga samimiy muhabbat bilan yondashuvi, inson va uniig faoliyatiga optimistik qarashi jihatidan progressiv axamiyatga ega edi. Chunki Navoiy borlikni e`tirof kilibgina qolmay, balki uni sevishga, uni yaxshilashga, insonning baxt-saodati uchun kurashga intilar va kishilarni shunga yo`llar edi.

Inson butun borlikning kurki va sharafidir. Olamning olam bulib vujudga kelishida g`araz (maqsad) xam mana shu insondir:

Muncha g`aroyibki misol aylading,
Borchani mir`oti jamol aylading.
Ganjing aro nakd farovon edi,
Lek boridin g`araz inson edi.
Koniyu xayvoni agar xud nabot,
Har biri bir gavhari oliy sifat,
Borchasini garchi latif aylading,
Borchadin insonni tarif aylading.¹⁰

Insonning baxt-saodati uchun, kamoloti uchun kurash «Hayratul-abror»ning asosiy etakchi g`oyasidir. Ob`ektiv borliq va iloxiyot masalasi Navoiyiing xususan, «Lisonut-tayr» falsafiy dostonida keng yoritiladi, shoir uzining fikr-muloxazalarini rivojlantiradi, takomillashtiradi.

Navoiy dinni e`tirof etadi, islom va imon shartlarini ta`rif va tavsif kiladi, tasavvufning Baxovaddin Naqshband va Xo`ja Ahror kabi yirik

⁹ Ўша манба
¹⁰ Ўша манба

Б.
Б.

namoyandalarini madh qiladi. Biroq Navoiyning joxil, insofsiz va xiylakor din-shariat peshvolarini, shayx-zohidlarni fosh etishi g'oyatda ijobiy ahamiyatga ega edi. Navoiy insonni ezib-talovchi, uni jaxolat va nodonlik kulfatiga etaklovchi jannat va'dalari bilan avrab, duzax qiynoklari bilan daxshat soluvchi ruxoniylarni, mutasavvuflarni qattik koralaydi, hajv qamchisi bilan savalaydi. Bu jixatdan ayniqsa «Hayratul-abror»ning to'rtinchi maqolati — «Xirqapush shayxlar...» diqqatga sazovordir. Navoiy bu maqolatda xirqapush shayxlarning tashki qiyofasini xam, kirdikori va fe'l-atvorini xam ustalik bilan tasvirlab, ularni sharmandai sharmisor qiladi. Shayx xirkasining ipi makr rishtasi bulsa, elkasidagi baxyalar naxs yulduzi, choyshabi yolg'on tong, xassasi xiylakorlik uyining ustuni, tamagirlik kemasining eshkagi... soqoli kishini kuldiradi, u echkidek egri yogochga chiksa-da, biroq echki (uyinda) o'grini tutib beradi, shayx esa o'zi o'gri. Shayx bangi, koradori uning yonidan arimaydi. Sirti tozadek, ichi iflos, tashi ozoda, ichi ax-latxona... kuylagiga mushk sepgan, lekin qalbida it ulib sasigan... u zikr tushib fildek depsinadi, nafs oldida kafasidagi xayvondek xoru zalil. Bunday kishiga duzax uti xam xayf. Biroq shu xolda u uzini xizru paygambar deb kursatadi... xonaqohi — fisq-fasod maskani. U murid ovla ydi, birini xilvatnishin qilsa, yana birini zurlik bilan uzlatga chekintiradi. Muridlari xam uzidek nodon va aldamchi, voqeachi unga yolg'on tushini so'zlaydi, shayx esa uni yolg'on suzlar bilan ta'bir qilib beradi... Afsuski, bunday shayxlar obro'-e'tibor qozonib, hatto shohlarni xam avrab murid qiladilar, in'om va tuhfa, mol-mulkka zga buladilar. Xullas:

Bu el erur borcha yomondin-yomon,

Kimki yuq andin yomon, andin yomon.¹¹

Navoiy bunday hiylakor shayx-zohidlar bilan birga tarkidunyochi badbin shayx-zohidlarni xam fosh qiladi, ular xomxayol bilan uzlarini xam, xarob qiladilar, deydi. Shayxlarning nufuzi ortgan jamiyat sharoitida Navoiyning shayx-zohidlarni

¹¹ Ўша манба

Б.

dadillik va keskinlik bilan fosh etishi g`oyatda katta axamiyatga ega edi. Navoiy kishilarni ulardan qutkazishga intilar va xiylakor, badbin shayx-zoxidlarga karshi ularning gazab va nafratlarini kuchaytirar edi.

1.2. Asardagi ijtimoiy-siyosiy masalalar

Navoiy boshka asarlarida bulgani kabi «Hayratul-abror»da xam yashagan davrining ijtimoiy-siyosiy masalalariga keng urin beradi. U XV asrning xayot lavxalarini haqqoniy tasvirlaydi, muxitning ayrim illatlarini dadillik bilan tankid kiladi, xalkning orzu-armonlarini kuylaydi, turli ijtimoiy tabakalarni ta'rif va tavsif etadi, ularni bir-biriga chogishtiradi, karama-karshi yoki parallel kuyadi, birlarini olkishlaydi, birlarini tankid kiladi, birlarini fazl-kamolotlarini rivojlantirishga, birlarini xato va xatar yulidan, turli nuksonlardan kutulib tugri yuldan tushishga undaydi, birlariga tabassum, birlariga kaxru gazab kiladi. Shoir ularning shakl-shamoyillarini, aft-basharalarini, kiyim-kechaklarini, fe'l-atvor, maksad va muddao, zavki yoki gazabini yoritishda san'atkorlik maxoratini ishga soladi, mubolaga va uxshatish, kinoya va istiora, tazod va tadrij kabi adabiy usul xamda badiiy til vositalaridan foydalanadi.

Navoiy ijtimoiy-siyosiy xayot vokealari taxlili va ta'rifida jamiyat a'zolarini yaxshi va yomonlarga ajratadi. Birok eng muximi va etakchisi shundaki, Navoiy ijtimoiy-siyosiy xayot vokealarini insonparvar va peshkadam ma'rifatparvar mutafakkir sifatida el-yurtning manfaatlarini ximoya kilish asosida yoritishga intiladi. Bu bilan XV asr kobigida kolib ketmaydi, balki davrlarga mansub va manzur bulib koladi.

«Hayratul-abror»dagi:

Odamiy ersang demagil odami,

Oniki yuk xalk gamidin g`ami.¹²

bayti Navoiyning butun faoliyati va ijodiyoti uchun etakchi bir shior bulib koladi.

¹² Ўша манба

Б.

Navoiy insonni sevadi, uning hak-hukuklarini himoya qiladi, va baxt-saodati uchun kurashadi. Navoiy sevgan inson yaramas xislat va illatlardan musaffo, fozil va komildir. U mehnatkash ijodkor, uz kasb-korini, lavozimini egallagan, mehnati va zakovati, faoliyati va intilishlari bilan uziga xam, uzgalarga xam manfaat etkazuvchi insondir. Tengi yo`q saxiy Xotami Toyni uz mehnati va kanoati bilan dong koldirgan muysafid, bilimli va zakovati bilan Xorazm shoxini lol etgan olim Faxriddin Roziy va boshkalar shunday inson jumlasidandir. Navoiy barchaning shunday inson bulishini istaydi.

Biroq Navoiy yashagan muxit turli-tuman ziddiyatlar bilan, xaksizliklar bilan to`lib-toshgan edi, zulm va jaholat, xudbinlik va maishatparastlik, xusumat va adovat avj olgan edi, mehnat axllari och-yalongoch, ma`rifat namoyondalari xor-zor, joxil va zolim kishilar mansab-martabada edilar. Shoirning orzu-armonlari yashagan muxitining illatlariga tuknash kelib, uning alamli, qayguli misralarini vujudga keltiradi. Biroq shoir chekinmaydi, u usha illatlarni xujumkorlik bilan tankid kilishga kirishadi, ularni xajv kamchisi bilan savalaydi, xayotni, muxitni tuzatish, yaxshilash yullarini izlay boshlaydi. Ishratparast podsho Bahrom ovga chikib bir kishlokka kelib koladi. Kishlok xarob, Baxrom tushgan dexkon manzili esa vayrona va mungli:

Chotma dema, hajr qora shomi de,
Zulmu taab qushlarining domi de,
Oshiqlar ko`ngli uyidek yiqug`,
Tirlari har tarafdin chiqug`...

Barcha yalang hodisa torojidin,
Barcha nigun zulm iligi kojidin...¹³

Bu manzara o`nlab qishloqlarning, minglab kulbalarining manzarasi edi. Jismoniy mehnat ahllari — dehqonlar, chorvachi va kosib-hunarmandlargina emas, balki ilm-ma`rifat ahllarining ham ahvoli juda mushkul edi. Madrasa

¹³ Ўша манба

Б.

talabalarining axvoli yanada ayanchli va mungli edi. Mana, musofir talaba axvolining haqqoniy tasviri:

Zulm durur ushbuni bir notavon,

Ilm tilab shahridin o`lg`ay ravon.

Ayni falokatdin ayog`i yalang,

To`ni yo`qidin tani dog`i yalang...

Xalq ko`pu yo`q biri yori aning,

Ko`zdin uchub shahru diyori aning.

Ko`cha ko`pu, ev ko`pu bozor ham,

Bilmayin ulkim, qayon urg`ay qadam...

Sayr etib oqshomg`acha beto`shae,

Chun bo`lub oqshom tutbon go`shae.

Za`f ila hushi o`ziga kelmayin,

Tongg`acha uyqu ko`ziga kelmayin...

Ne topilib kunduz aning maskani,

Ne bilinib kecha aniig ma`mani...

Bo`yla g`amu mehnati davron chekib,

O`nu o`n besh yil yugurub, jo chekib.

Ba`zi o`lub, ba`zi itib har taraf,

Ba`zi etib doiyasin bartaraf...

Evrulubon doirani mohu sol,

Zohir bo`lub bir-ikki sohib kamol...¹⁴

Ne-ne mashakktlar bilan ilm olgan olimning axvoli va istikboli uning talabalik davridan deyarli farq kilmas edi. Saroy axllari, amir-amaldorlar, kozi va muftilar esa zulmzurlik bilan mol-dunyo orttirar, aysh-ishrat, xuzur-xalovat bilan

¹⁴ Ўша манба

Б.

xayot kechirar edilar. Mana, zolim va johil feodal xukmronning saroyi manzarasi, saroy ahllarining kirdikori va faoliyati:

...Bazmlar muxayyo bulgan jannat bogidek u kasrlarning ziynati nimadan vujudga kelgan?.. Pardalari ipi elning jonidan, la'li va kizil buyogi ulusniig qonidan. Kuyosh tusli nakshlar el moli bilan zarlangan, elning duru la'li bilan gavharlangan. G'ishtini masjidni buzib olib kelgan, toshini elning qabristonidan... Shoh shunday joyda shoxona aysh-nshrat surasan... Yarim tungacha shunday aysh-ishrat k.urasan. Bu axvolingga k.adax. kon yiglaydi, sham kuyib, kuz yoshi tukadi (shamning erib okishi), xuroz kukka figon kiladi (tong otib, xuroz kichkiradi)... Bazmdagi kariya xam, yigit xam xar biri bir telba itga aylanadi... mast-alastlikdan charchab ulikka uxshab yikilib yotib koladi. Tong otadi. Biroq shox va uning amal-dorlari uykuda. Uyku kuzlaridan uzoklashgach, xar biri bir zulm bilan mashgul buladi. Uzlarining aysh-ishratlarini surish uchun elga sitam kiladilar. Yana aysh-ishrat asbobi muxayyo bulib, yana bazm boshlanadi... xar kuni tungacha bu yomonlik davom etadi, tongga kadar gaflat xokim buladi... Qozi esa:

Avval erur kotibi dorul qazo,
Ish anga noshar'ig`a bermak rizo.
Shohidi odil anga yolg`on tonuq, :
Tuhmat etarga diram olg`on tonuq....
Nohaq uchun yozib uzun mojaro,
O`z yuzidek safhani aylab qaro.
Borcha xiyonatni diyonat bilib,
Borcha diyonatda xiyonat kilib...
Xo`sha uzumkim, kishi rishvat desa,
Kuydurubon bogni jannat zsa...¹⁵

Mufti qozidan kolishmaydi. Uziga biron foydali bulsa har k.anday noxaq ishga fotixa, tux.matga fatvo beradi. Devsifat devon omili — soliq yiguvchi amaldor

¹⁵ Ўша манба

Б.

kaerga borib tushsa, u urning tinchligini buzadi, dexqonlarning uy-joyini oyoqosti qilib, fisq bilan shugullanadi, mol-joniga qasd kiladi:

Biri yana omili devon bo`lub,
Dev aning a`molida hayron bo`lub.
Charx etib ism amaldor anga,
Bahra kilib ushbu amaldor anga...
Qaysi viloyatgaki azm aylabon,
El xaramu bog`ida bazm aylaboi...
Chahdagi tuzm arpasini oti eb,
Uyda tovug`larni suruk toti eb.
Hosil o`shul uyga balo doribon,
Qaysi balo, balki vabo doribon...

Xullas, mansabdorlarniig ishi el kabi sovrmoq o` t kabi kuydirmoqdir... Odati — qatl etish, har bir tuki — o`lim tomiridir... ular shunday tubanki, it bilap xamsoya, yuk., balki it ularning oldida insondir...

Va xokazo.

Shu tariqa Navoiy yashagan muhitining ijtimoiy-siyosiy voqeliklarini rostguylik bilan tasvirlaydi, illatlarini oshkor etadi, realistik tanqidiy manzaralar, portretlar yaratadi. Biroq u muhitning keskin kontrastlari, zulmu kabohatlari asl sabablarini topolmaydi, feodal jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy negizlarini saqlagan xolda bu jamiyatni tuzatish, uning illatlarini yo`qotish mumkin, deb uylaydn. Bunga u kishilarning xulq-atvorini tarbiyalash va adolatli podsho boshlik markaz-lashgan davlatni vujudga keltirish orkali erishish mumkin, deb xisoblaydi. «Xayratul-abror»ning uchinchi bobi — «Salotin bobida...» maxsus shu masalaga bag`ishlanadi, boshk.a boblarda xam bu masala salmokli urin tutadi.

Navoiy aytganidek, xudo shohlikni ato kilgan kishi ham aslida oddiy bir bandadir:

Bil, munikim, sen dog`i bir bandasen.

Ko`pragidin ojizu afgandasen,
Ermas alar tufrog`u sen nuri pok,q
Xilqat alargau senga tiyra xok...

Davlat boshlig`i odil, okil, orif va el-yurtga gamxur bulishi lozim:

Bo`ldi raiyat galavu sen shubon,
Ul shajari musmiru sen bog`bon.
Qo`yni shubon asramasa oyu yil,
Och bo`ri tu`masidur bori bil.
Bo`rini dog`i galadin dur qil,
Suv beribon bog`ni ma`mur qil...¹⁶

Navoiy ta`biricha, podsho va uning amir-amaldorlari ikki turli: «yaxshi» (odil, orif) va «yomon» (zolim, johil) bulishi mumkin. Odil va orif podsholarni, amir-amaldorlarni maktagan, tugrirogi, ushanday kishilarni orzu kilgan Navoiy, zolim va joxil podsholarni, amir-amaldorlarni k.attik tankid kiladi, koralaydi. Mamlakat va xalkning takdirini ularning faoliyati va xatti-harakati oqibatiga bog`laydi:

Shohki ish adl ila bunyod etar,
Adl buzuq mulkni obod etar.
Kofiri odil ani obod etib,
Mo``mini zolim ani barbod etib...¹⁷

Zolim va joxil podsholar zulmu jaxolat yulidan kaytishlari va odil bulishlari mumkin:

Zulmni tark aylavu dod aylagil,
Marg kunidin dog`i yod aylagil...
Sahvunga de uzr, tavahhum bila,

¹⁶ Ўша манба
¹⁷

Б.

Zulmdin et tavba tazallum bila.

Kimniki bedoding etibdur asir,
Bo`l anga adl ilgi bila dastgir...

Ovga chiqib, dehqonning xaroba kulbasiga mehmon bo`lgan Bahrom bu
xarobalikning sababini so`raganda, dehqon:

Dedi: burun yaxshi edi holimiz,
Zulm xarob ayladi ahvolimiz.

Shoh ulus holidin ogoh emas,
Juz mayu mutrib anga dilxoh emas.
Xayli ochibon tama og`zini keng,
Ayladilar mulkni er birla teng,—¹⁸

deb javob bergan edi. Dexkonning suzlari Baxromning kuzini ochadi, u mast-alastlikdan, aysh-ishratdan voz kechadi, adolat bilan mamlakat ishlarini boshkaradi. U kishlok obod, bog-buston bir joyga aylanadi. Navoiyning amaliy maksadi xam mana shu edi. Navoiy yashagan davrda feodal uzaro ixtiloflar, mamlakatning siyosiy xokimiyatini zaiflashtirib bormokda, iktisodiy va madaniy xayotga katta zarar keltirmokda edi. Davlat boshligi Xusayn Boykaro aysh-ishratga giriftor bulib bormokda edi. Navoiy xukmronligining xususan, dastlabki yillarida mamlakatning siyosiy xokimiyatini mustaxkamlash, xujaligi va madaniyatini rivojlantirishdagi katta xizmatlar kilgan Xusayn Boykaroni aysh-ishrat girdobidan, olib chikishga intilar va uning faoliyatiga katta umidlar bilan kuz tutar edi. Navoiy shu istak-orzu bilan «Hayratul-abror»da Husayn Boykaroni madx etibgina kolmay, balki «Shoh G`oziy» xikoyasida uning ideallashtirilgan obrazini xam yaratadi. Shox G`oziy taxtga chikadi. U:

Adl eshigin elga kushod ayladi,

¹⁸ Ўша манба

Б.

Text uza o`ltirdiyu dod ayladi.

Tuzdi buzuqlarni imorat bila,

ZULMNI Daf etti adolat bila.¹⁹

Shunda bir beva kampir: «Sen mening o`g`limni jangda uldirib yubording, senda kon haqim bor», deb arzga keladi. Shox bilan kampir qozi oldiga boradilar. Qozi kampir konga kon olmokchi bulsa «podshoni uldirishi yoki bulmasa shox uni rozi qilishi kerak», deb xukm chikaradi. Shoh buyniga sirtmok solib, kampirning qo`liga beradi, oyoqi ostiga tanga to`kadi va:

Dedi: qasos aylasang olingda bosh,

Siyumni ol, gar g`arazingdur maosh.

Men edim ul amrda beixtiyor,

Har ne sen etsang manga ne ixtiyor.²⁰

Kampir shohning odilligini ko`rib, xursand bo`ladi, uning qonidan kechib, oltin-kumushni olib, «Zoli zar» (Tilla kampir») deb nom chikaradi. Navoiy Xusayn Boykaro va barcha boykarolarning shunday bulishini orzu kilar edi. Xikoyadagi kozi xam ideallashtirilgan kozi obrazidir.

Xusayn Boykaro bilan uning ugillari, ayniksa, tung`ich ugli Badiuzzamon urtasidagi ixtiloflar avj olib davlat ishlariga, el-yurtning osoyishtaligiga salbiy ta`sir etmokda edi. Navoiy sabr-bardosh va tadbir bilan bu ixtiloflarni bartaraf etishga intiladi, u «Hayratul abror»ning xotimasida:

Shahg`a so`zumdin bor esa e`tibor,

Gar senga ham pand desam eri bor,—²¹

deb bazan isyonkorlik xurujlari bilan bosh kutarib turgan valiahd shahzoda Badiuzzamonga nasihat kiladi, uni aysh-ishratga, mansabparastlikka

¹⁹ Ўша манба

Б.

²⁰ Ўша манба

Б.

²¹ Ўша манба

Б.

berilmaslikka, olijanob fazilatlariga ega bulishga chakiradi.

Shunday kilib, Navoiyning ijtimoiy-siyosiy karashlari insonparvarlikka, xalkparvarlikka asoslangani bilan xarakterlidir.

1.3. “Hayrat ul-abror”da axloq-odob va ta’lim-tarbiya masalalari

Donishmand murabbiy Alisher Navoiy «Xayratul-abror»ning bir necha bobini bevosita axloq-odob va ta’lim-tarbiya masalalariga bagishlaydi. U xikmatomuz suzlar bilan yaxshi xulk-odobni, ezgu xislatni targib etadi, yaramas odat va xislatlarni shafqatsiz tankid kiladi.

Beshinchi maqolat karamga bagishlangan. Navoiy bu makolatda saxiylik bilan baxillikni bir-biriga karama-karshi kuyadi, ulardan xar birining moxiyatini ochib beradi. Saxovat insonning eng yaxshi sifati va fazilatidir. Birok saxovatning xam uz shartlari bor. Saxiy kishi extiyojmandlarga kumaklashishi, saxovat beg`araz, beminnat bulishi kerak. Saxiyman deb tukib-sochish xam yaxshi emas, bu isrofdir:

Nakdni dog`i guldek sovurmag`il,
G`uncha kibi dog`i girih urmag`il.²²

Har kanday ximmat va saxovatdan xam uz kul mexnati bilan kun kurib, kanoat kilish yanada ulugrok va olijanobrokdir. Navoiy bu fikrini tularok ifodalash uchun Xotami Toy xikoyasini keltiradi. Xotamdan sen uzingdek boshka biror ximmatli kishini kurganmisan deb suraganlarida, u bunday xikoya kiladi: kunlardan bir kun katta ziyofat oldidan dalaga chikib aylanib yurganimda chup-xas yigib bozorga tomon borayotgan komati bukchaygan bir muysafidni kurdim. Unga: Xotami Toy uyiga borib, noz-ne`matdan baxramand bulsangiz, bu mashakkatli

²² Ўша манба

Б.

mexnatni sizga kim kuyibdi desam, muysafid bunday javob kildi:

...Sen dog`i chekkil bu tikan mehnatin,

Tortmagil Xotami Toy minnatin.

Bir diram olmoq, chekibon dast ranj,

Yaxshiroq andinki, birov bersa ganj.²³

Hotam xikoyasini:

Ulki bu yanglig` so`zi mavzun edi,

Mendan aning himmati afzun edi,

so`zlari bilan tugatadi.

«Hayratul-abror»ning oltinchn maqolati odob masalalariga bag`ishlangan, Navoiy bu maqolatida kishilar bilan munosabat va muomala mezoni, o`zini tuta bilish, bola tarbiyasi va boshqalar hakida xikmatli fikr-muloxazalarini bayon etadi. Odob bilan tavoze bir butunlikni tashkil etadi. Kishi xar bir kishining xolu axvoliga yarasha muomala kilishi, kattalarga xizmat, kichiklarga shafkat etishi lozim:

Har kishining tavriga loyiq kerak,

Surati

xoliga muvofiq kerak.

Kimki ulug`roq

anga xizmat kerak,

Ulki kichikroq anga

shafqat kerak.²⁴

Navoiy bola tarbiyasi, uni o`stirish, ukitish va balogatga etkazish xakida keng tuxtaydi. Shu bilan birga u bolalarga karatib:

Boshni fido ayla ato qoshig`a,

Jismni qil sadqa ano boshig`a...

Tun-kununga aylagil nur fosh,

²³ Ўша манба

Б.

²⁴ Ўша манба

Б.

Birsin oy angla, birsin kuyosh...—²⁵

deb nasihat kiladi.

Murabbiy shoir o`zini tuta bilmaslik, o`rinsiz kulgi va boshka xildagi salbiy xislatlarni kattik koralaydi. Jumladan, u urinsiz kulgi xakida aytadi:

Tarki adabdin biri kulgu durur,

Kulgu adab tarkiga belgu durur...

Kulguki uz haddidan uldi yiroq,

Yig`lamoq andin ko`p erur yaxshiroq...

Qaxqahakim hazilaning yori dur,

Qurbaqa savti bila raftoridur...²⁶

«Hayratul-abror»ning ettinchi maqolatida:

Ikki qaro pul chekibon dast ranj,

Yaxshiroq andinki, shah in'omi ganj.

Tinch ko`ngul birla qatiqsiz umoch,

Behki birov minnati birla kuloch,—²⁷

deb kanoat va mexnatni ta'riflagan Navoiy taom emoq kiyim kiymok va boshka masalalar xakida ham kimmatli fikrlar yuritadi, nasixatlar kiladi, jumladan, u bunday deydi:

...Kimga necha zabu tamadin yiroq,

Zimnida osoyish erur yaxshiroq.

Gavharu durni kuloq ozori bil,

So`zni quloqning duri shahvori bil.

Oltun isirg`aki quloq og`ritur,

Zarhal etukdurki, ayog` og`ritur.

²⁵ Ўша манба

Б.

²⁶ Ўша манба

Б.

Nukta durin bil quloq oroyishi,
Keng etuk uldi oyoq osoyishi...²⁸

Maqolatga ilova kilingan «kanoatli va tamagir» xikoyasida Navoiy «xomtama dahrda ranjur zrur» g`oyasini ilgari suradi.

«Hayratul-abror»ning sakkizinchi maqolatida vafo va sadoqatni ta'rif va tavsif etgan Navoiy, kishilarni hamjihat bulishga, bir-biriga kovushishga chaqiradi. Chunki:

...Yuk hunari yolg`uz esa o`z kishi,
Qayda kishi sonida yolg`uz kishi.
Fard kishi davrda topmas navo,
Yolg`uz ovuchdin kim eshitmish sado!..
Toq kishi ayshi uyin bil nigun,
Uyga qachon homil o`lur bir sutun?²⁹

Shoir vafo va sevgini uzviy ravishda bir-biriga bog`laydi. Sevgisiz hayot yuq vafo esa sevgining shartidir:

Bas kishiga umr xushi yor emish,
Umr degan yori vafodor emish.
Yorki, oyini vafo yo`q anga,
Sham kibidurki, ziyo yo`q anga.³⁰

Maqolatning oxirida shoir uz muhitidan, bevafo va insofsiz kishilardan achchik shikoyat qiladi. Vafo va sadoqatning mohiyati va xosiyatini kuchaytirib kursatish uchun vafodorligi tufayli Amir Temurning qatlidan omon kolgan hindistonlik ikki vafodor yor xakida xikoya keltiriladi. Tukkizinchi maqolatda

²⁷ Ўша манба

Б.

²⁸ Ўша манба

Б.

²⁹ Ўша манба

Б.

³⁰ Ўша манба

Б.

Navoiy samimiy sevgining mohiyati, kudrati va shartlari haqida fikr yuritib:

«Bo`lmasa ishq ikki jahon bo`lmasun,
Ikki jahon demaki, jon bo`lmasun».
«Ishqsiz ul tanki, aning joni yo`q,
Husnni netsun kishikim, oni yo`q».
«Pil bo`lur ishq anga keltursa zo`r,
Pil ayog`i ostida andoqki mo`r».
«Oshiq ani bilki, erur dardnok,
Ham tili, ham ko`ziyu ham ko`ngli pok».
«Oshiq o`zin kim desa, oshiq emas,
Borcha kishi ishqda sodiq emas.
Ulki kezib husn pisand aylagay,
So`ngra ko`ngulni anga band aylagay.
Oni ko`ngul demaki, bir pora tosh,
Ne qizig`ay sham uyidin xora tosh»³¹

kabi ajoyib aforizmlar yaratadi.

Rostlik va tugrilik masalalariga bagishlangan uninchi maqolatda Navoiy xilma-xil uxshatishlar yordami bilan rostguylik va to`griqlikning foydasi, yolg'on so`zlash va egrilikning zararini bayon etadi:

Har kishikim, tuzluk erur peshasi,
Kajrav esa charx ne andeshasi.
O`qki tuz o`ldi tayaroni aning,
Bulsa par egri, ne ziyoni aning?
Yo`l necha tuz, yo`lchiga maqsad qarab,
Xamlig`idin tushsa yiroq yo`q ajab.
Nay tuz uchun istar ani ahli hol,
Chun tuz emas, chang ko`rar go`shmol...

Bir xati gar egri tushar bir nuqat,
Nusxada har safhadadur egri xat...
To reja chekmas eriga bog`bon,
Bog`hamon zebda jangal hamon.
Molasiz ul tuxmki, dehqon sochar,
Suvni teng ichmas necha yakson sochar...³²

Shoir maqolatga yolg`on suzlashi okibatida ovchining tuzogiga tushgan durroj (tus tovukka uxshash bir xil kush)haqida «Sher bilan Durroj» masalini hikoya kiladi.

Ilm va ilm-fan axliga yuksak baxo berib, kishilarni ilm olishga, olimlarni izzat-xurmat kilishga chakirgan Navoiy «Hayratul-abror»ning un birinchi bobida:

Ilm Navoiy, sanga maqsud bil,
Emdiki ilm o`ldi, amal aylagil,—³³

deb ilmni amaliy faoliyat bilan boglaydi xamda ilmni , shaxsiy intilish yuligagina sarf etgan kishilardan g`azablanib:

Ilmni kim vositai joh etar,
O`ziniyu xalqni gumroh etar
Olim agar joh uchun o`lsa zalil,

Ilmi aning jahlig`a bo`lg`ay dalil,—³⁴

dedi.

Shoir uz davrida ilm olishning nakadar mashakktli ekanini, ilm-fan egalarining xor-zorligini xasrat bilan suzlaydi.

Maqolatdan so`ng «Imom Faxr Roziy bila Sulton Muhammad Xorazmshoh»

³¹ Ўша манба

Б.

³² Ўша манба

Б.

³³ Ўша манба

Б.

³⁴ Ўша манба

Б.

xakidagi xikoya keltiriladi. Sultonning xammomda u dunyoda olim qanday martabada buladi-yu, shox kanday martabada, degan surogiga olim:

Kim sangakim hashar suzi kom erur,
Bil anga monand bu hammom erur.
Anda gado shah bila yakson bo`lub,
Shohu gado borchasi uryon bo`lub.
Johu jalol ahli saningdek bori.

Ichkariyu boru yo`qi tashqari,

Ilmu amal ahli meningdek tamom,
Har ne yig`ib, hamroh etib vassalom,
Yo`q sanga sultonlik ila sud ko`p,
Lek manga ilm ila behbud ko`p,—³⁵

deb uni engadi.

Un uchinchi maqolatni Navoiy elga manfaat etkazish masalalariga bagishlaydi. Xakikiy inson el-yurtga foyda etkazishga xarakat kilishi, qo`l kuchi yo mablagi bilan, shirin suzi va maslaxati bilan madad berishi lozim. Bunday kishi uzgalargagina emas, balki ayni chokda uziga xam foyda keltirgan buladi:

Nafing agar xalqqa beshak durur,

Bilki bu naf o`zungga ko`prakdurur.

Aksincha, agar kishi o`zgalarga yomonlik qilsa, bu bilan u birinchi navbatda o`ziga yomonlik qilgan bo`ladi:

Ulki zarar shevasini tavr etar,

Elga demakim, o`ziga javr etar.

Ulki ushatur bosib shishani, kr.

³⁵ Ўша манба

Б.

Qilmas ayoq zaxmidin andeshani.

Kimki falak sori otar toshini,

Tosh ila ozurda qilur boshini...³⁶

Kurilgan boblarda kishining yaxshi va yomon sifati, "xislati va odatini bir-biriga karama-karshi kuyib, birini yoklab targ`ib kilgan, ikkinchi biriii koralab rad etgan Navoiy keyingi bir necha maqolatni yaramas va jirkanch sifat, xislat va odatni, be'mani xulk-atvorni fosh etishga bagishlaydi. Un beshinchi maqolatda mayxurlik va mayxurlarni, un oltinchi maqolatda xudbinlik va xudbinlarni achchiq tankid kiladi, ularning xakiqiy aft-basharalarini ochib tashlaydi, ichki dunyosini xam fosh etadi.

Murabbiy shoir Navoiyning yaramas xislat, odat va xulk-atvorni shafkatsiz koralash, olijanob insoniy fazilatlarni xormay-tolmay targib etishi, donishmandona ugidlari, shubxasiz, katta axamiyatga egadir. Navoiyning bir kator axlokiy-ta'limiy karashlari xozirgi kunda xam uz kimmatini saklab kelmokda.

I I Bob. “Hayrat ul-abror” dostonining o`rta maktablarda o`rganilishi

³⁶ Ўша манба

Б.

2.1.“Sher bilan durroj” masalida to`g`rilik va egrilik, rostgo`ylik ta`rifida

Adabiyot faqat pedagogik maqsadlarga xizmat qiluvchi fan bo`libgina qolmay, umumiy o`rta ta`lim maktablarida o`qitiladigan boshqa fanlar singari, o`quvchilarga birinchi navbatda bilim berishi, ya`ni ko`p asrli o`zbek adabiyoti tarixi va hozirgi adabiy jarayonning asosiy yo`nalishi – yetakchi yozuvchilar va ular ijodi bilan, shu yozuvchilar ijodida o`z ifodasini topgan xalq va mamlakat tarixi bilan tanishtirishi, adabiyotning fan sifatidagi o`ziga xos tomonlari va nazariy masalalari haqida tasavvur berishi lozim. Aniqroq aytganda, umumta`lim maktabini bitirib chiqqan o`quvchi o`zbek adabiyotining eng qadimgi davridan hozirgi davriga qadar bosib o`tgan yo`li haqida, atoqli yozuvchilarning hayoti va ijodi haqida muayyan bilimga ega bo`lishi lozim.

Yozma adabiyotdan bir necha asr avval xalq og`zaki ijodi yaratila boshlangan va bu og`zaki ijod hozirga qadar yashashda davom etib keladi. Yozma adabiyotning maydonga kelishida muhim manba bo`lgan o`zbek xalq og`zaki ijodi dunyodagi eng boy og`zaki ijodlardan biri bo`lib, ko`plab doston, afsona, rivoyat, ertak, qo`shiq, maqol, topishmoq singari asarlarni oladiki, ularda, bir tomondan, xalq tarixi, maishiy madaniyati, urf-odatlar va h.k.lar o`z aksini topgan bo`lsa, ikkinchi tomondan, shu asarlar xalqni, ayniqsa, yosh avlodni milliy an`analar ruhida, shuningdek, vatanparvarlik, erkparvarlik, mehnatsevarlik ruhida tarbiyalab kelgan. Shuning uchun ham yozma adabiyot bilan birga, umumiy ta`lim maktablari o`quvchilariga o`zbek xalq og`zaki ijodining eng yaxshi namunalari haqida ham bilim berish maqsadga muvofiq.

O`zbek adabiyoti jahon adabiyotining tarkibiy qismidir. O`zbek adabiyoti boshqa adabiyotlar singari, milliy zaminda tug`ilgan va shu zaminda rivojlanib keladi. O`zbekiston jahon hamdo`stligining to`laqonli a`zosi bo`lgan hozirgi kunda faqat o`zbek adabiyotini o`rganish o`quvchilar uchun yetarli emas. Jahon adabiyotining turli adabiy-tarixiy davrlarda yaratilgan eng yaxshi asarlari va shu

asarlarning mualliflari haqida bilimga ega bo'lish, bir tomondan, o'quvchilarga o'zbek adabiyotining milliy o'ziga xosligini tushunish imkonini bersa, ikkinchi tomondan, ularning adabiyot haqidagi bilimlarini boyitadi.

Adabiyot ijtimoiy fan tarmog'i sifatida shu kecha-kunduzda tug'ilib va shakllanib kelayotgan avlodlarni milliy g'oya asosida tarbiyalash ishiga xizmat qilishi zarur. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga zid (masalan, diniy va milliy totuvlikka raxna soluvchi), milliy g'oyaga zid, milliy iftixor tuyg'usini tarbiyalash tamoyiliga mos kelmaydigan asarlar darslikdan joy olmasligi kerak.

5-7 sinflar uchun dasturlarda xalq og'zaki ijodi, mumtoz adabiyot, zamonaviy adabiyot va jahon adabiyoti materiallari muayyan mavzular bo'yicha berilgan bo'lsa, 8-9 sinflar uchun yaratilgan dasturlar adabiyotni tizimli o'rganish maqsadiga bo'ysundirilgan.

Odatda, adabiyot fani bo'yicha tuzilgan dasturlarda, mumtoz va zamonaviy adabiyot tarixida katta mavqega ega bo'lgan, tarix g'alviridan o'tgan, milliy adabiyot taraqqiyotiga muhim hissa qo'shgan yozuvchilar va ularning sara asarlari o'quvchilarga o'rganish uchun tavsiya etib kelinadi.

Ana shunday allomalarimizdan biri hazrat Mir Alisher Navoiy bo'lib, 5-sinfda "Mumtoz adabiyot bo'stoni" bo'limida Sa'diy Sheroziy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Muqimiy kabi ijodkorlar qatorida adibning "Hayrat ul-abror" dostonini o'rganishga 4 soat ajratilgan. Unda dastlab Alisher Navoiyning hayoti va ijodi haqida qisqacha ma'lumot berib, so'ngra mazkur asar buyuk shoirning "Xamsa" asarining birinchi dostoni ekanligi aytiladi. Dostonda chin va yolg'on so'zning solishtirilishi, to'g'rilikning qanchalar azob bilan bo'lsa-da g'olib kelishi, yolg'on va egrilikning oxir- oqibat engilishi Sher bilan Durroj qismati misolida aks ettirilishi o'quvchilarga tushuntiriladi. Asar matni o'quvchilar tomonidan o'qitiladi. Dostonning o'ninchi maqolatidan olingan hikoyatlarning ramziy ma'nosi haqida suhbatlashiladi. Aslida inson ma'naviy qiyofasini aks ettiruvchi hikoyatlarning badiiy va axloqiy xususiyatlari tahlil qilinadi.

Alisher Navoiyning "Xamsa" asariga kirgan birinchi doston "Hayrat ul-

abror” , ya`ni “Yaxshi kishilarning hayratlanishi” deb nomlanadi. Mazkur doston 64 bob, 20 ta maqolatdan tashkil topgan. Har bir maqolat bir mavzuga bag`ishlangan bo`lib, shoir, avvalo, o`quvchini bu mavzu bilan tanishtiradi. So`ngra o`sha mavzuga munosabat bildirib, uni har jihatdan tasvirlaydi. O`quvchining tasavvurlari aniq bo`lishi uchun juda ko`p qiyoslar, obrazli o`xshatmalar keltiradi va eng so`ngida mavzuga mutanosib ibratli hikoyat bayon qiladi.

Biz ko`rib o`tmoqchi bo`lgan o`ninchi maqolat ham xuddi shunday qurilishga ega. Dostonning bu maqolati rostlik, to`g`rilik tushunchalariga bag`ishlangan.

Bobomiz har bir inson o`ziga to`g`rilikni odat qilmog`i haqida so`z yuritarkan, turli narsa va hodisalarning, kundalik turmushda ishlatiladigan juda ko`p buyum va jihozlarning to`g`ri va egri xususiyatlarini solishtiradi. Masalan, biron manzilga bormoqchi bo`lsangiz, o`sha yerga eltuvchi to`g`ri yo`l bo`lsa-yu, siz aylanma yo`ldan yursangiz, albatta manzilga kechroq yetasiz. Sham o`zi to`g`ri bo`lgani holda, uni tikka qo`yib yondirasiz. Atrofga shu`la sohib, kishilarga uzoq vaqt yorug`lik beradi. Shuning uchun ham u kerakli narsa sifatida e`zozlanadi, ehtiyot qilinadi. Shu`laga intilgan parvona - maydagina kapalak uning atrofida aylanib, egri harakatlar qilgani uchun o`sha shu`laga urilib yonib ketadi. Yoki rubob, dutor, tor kabi cholg`ularga e`tibor qilsangiz, cholg`uchilar ulardan yoqimli kuylar chiqarish uchun sozlab olishadi. Ya`ni torni tarang tortishadi. Tor egri holatda tursa, cholg`u sozlanmagan bo`ladi, demak, unda kuyni yaxshi ijro etib bo`lmaydi. Shoir bu qiyos orqali odamlar to`g`ri yurib, to`g`ri ish tutsalar, o`zgalarga ham, o`zlariga ham foyda keltiradilar; ulardan manfaat ko`rgan kishilarning hurmatini qozonadilar; qayerda bo`lmasin, izzat ko`radilar, deydi. Aksincha, to`g`ri ish yuritmay, biror yomon g`araz bilan har xil aylanma, egri harakatlar qilsalar, ularning holi voy, xuddi parvonadek kuyib-yonib qoladilar. Egrilik borib-borib har xil yomon illatlarga yetaklaydi. Fikri egri bo`lgan, Xudodan, qonundan qo`rqmaydigan odam hamma ishni o`zim xohlaganimcha

qilaverishim mumkin, deb hisoblaydi. Birovlarning narsasiga, mol-mulkiga ko`z tikadi, o`g`rilikdan hayiqmaydi.

Islom dini aqidalari bilan yashagan davlatlarda qadim zamonlardanoq qo`li egri, o`g`ri odamlarning qo`lini kesib, jazolashgan. Navoiy bobomiz yashagan davrda ham shunday tartib hukmron bo`lgan. Shoir dostonida ana shu jazo usulini nazarda tutib, qo`li egri odamlarni xalq qo`lini kesib “to`g`rilaydi” deydi. Kimki to`g`rilik yo`li qanday ekanligini bilmoqchi bo`lsa, bu yo`l ikki xil bo`ladi, deb aytadi. Birinchisi, to`g`ri so`z odam. Agar u to`g`ri so`zli bo`lsa, uning ishi, o`zi ham to`g`ri bo`lishi kerak. Ikkinchi toifa kishilar andisha bilan, betgachoparlik qila olmay, “to`g`ri” deguvchilar. Navoiy birinchi toifani to`liq ma`qullagan holda, ikkinchisi ham “yomon emas” deya inkor qilmaydi. Chunki bunday kishilar asli egri maqsadlilar emas. Ular yaxshilik ko`zlab, murosamadora ma`nosida, azbaroyi ezgu niyatda yolg`onni “to`g`ri” deydilar. Albatta, iloji boricha yolg`onni gapirmagan ma`qul. Ammo sharoit majbur etsa, toza ko`ngilda ish bitmog`i uchun yolg`onni tasdiqlash ayb emas. Shu o`rinda shoir o`z zamonasidan biroz noliydi. Odamlar rostgo`ylikdan chekinayotgani, yolg`on-yoshiq ko`payib ketayotganidan xavfsiraydi. Xudoning buyurgan amallari, to`g`ri deb bandalariga ko`rsatgan yo`riqlarini noto`g`ri tushunuvchilar bor. Xato gapirishga o`rgangan odam noto`g`ri fikrni to`g`ri deb qabul qiladi. Shundanmi, shoir o`z atrofini qamragan odamlardan to`g`ri, rost gapirgani qashshoqlik, yetishmovchilikdan boshqa narsani bilmaydi, deydi. Barcha jamoa istagi egrilik bo`lsa, sen o`z haqligingni isbotlashga har qancha urinma, baribir hech narsa qilolmaysan hamda ularga yoqmaysan. Zero, egrilikning ham, to`g`rilikning ham o`z ta`rifi bor. Egrilik yolg`ondan paydo bo`ladi, to`g`rilik haqiqatdan. Demak, muallif, yolg`on so`zlash, yolg`on harakat qilish egrilikka olib keladi, deb hisoblaydi. So`zining isboti uchun bog`bon va dehqonning ishini misol keltiradi. Bog`bon yaratajak bog`ni reja bo`yicha, ya`ni daraxtlarni bir tartibda ekib, pavarish qilmasa, har yerda tarvaqaylab, qiyshiq-qing`ir o`sgan daraxtlar bog`ni changalzorga aylantiradi. Dehqon esa urug`sochadigan yerini shudgor qilib, so`ng mola bosmasa, ya`ni tekis qilib olmasa,

sochgan urug`i bir xilda unib chiqmaydi. Chunki notekis yerda ekinlar bir xil sug`orilmaydi. Ba`zi joylarga suv ko`proq tushadi, ba`zi joylarga esa kamroq. Xuddi quyosh ham sokin turgan suvda to`g`ri va to`la aks etsa, chayqalgan suvda nurlar sinib egri ko`ringandek. Demak, hamma tirik jonzot batartiblikdan, reja va to`g`ri parvarishdan quvvat olsa, nega insonlar shulardan o`rnak olmaydi? Yolg`on gapiradi va egri yuradi. Agar bilmagan holda yolg`on so`zlansa, so`ng bilgach, undan qochilsa, buni ayb deb bo`lmaydi. Chunki o`sha odam baribir to`g`ri yo`lga tushib oladi-da. Bu bilan hazrat Navoiy inson hayotda adashishi, chalg`ib qolishi mumkin, lekin vaqti bilan o`z xatosini anglasa va bundan afsuslanib, uni tuzatishga urinsa, u holat kechiriladi, deb tushuntiradi.

Ammo yolg`on gapirish odatga aylangan bo`lsa, mana bu yomon, kechirilmaydigan gunoh. Musulmon odam, mard kishi hech qachon yolg`on so`zlamaydi. Yolg`on so`zlaydigan odamni musulmon demaydilar. Yolg`onchining gapi hech qachon e`tibor topmaydi. Agar u xalqni yolg`on gaplari bilan aldab yurgan bo`lsa ham, Xudoni aldolmaydi-ku. Navoiy bunda “Kasalni yashirsang, isitmasi oshkor qiladi” degan xalq maqoliga monand fikr aytadi. Ya`ni yolg`onni xaloyiq ko`zidan qancha yashirmasinlar, maxfiy saqlashga urinmasinlar, baribir oxirida yolg`on o`zini ma`lum qiladi. To`g`ri, kishi qattiq qizishib ketib, aql chekinib, ehtiros holatida qasam ichsa, uning onti yuvilishi mumkin. Ammo ongli holatda qasam ichib, u bajarilmasa unday odam “qasamxo`r” deyiladi va bu oxiratda katta gunoh sanaladi. Unday odam endi qancha rost gapirsa ham xalq uning gapini jiddiy qabul qilmaydi. Bundan u kimsa iztirob chekishi mumkin. Ammo uni hech bu iztirobdan, ma`naviy azobdan qutqara olmaydi. Ulug` mutafakkir bobomiz shu so`zlarni yozarkan, yolg`on gapirib el nazaridan qolgan odamlar bir yuzi qaro bo`lganlar, deb hisoblaydi. Agar majbur bo`lib qolganingda ham rost gapni aytish iloji bo`lmasa, yolg`onni ham gapirma, deydi. Shu tariqa yolg`onning kishilar tabiatidagi yaramas va badbin illatligini, uning oqibatlarini qator qiyos-u o`xshatishlar bilan qoralab kelib, muallif, asar badiiy qurilmasiga ko`ra bu o`rinda ham majoziy bir hikoyatga murojaat qiladi. Ya`ni “Sher bilan

Durroj” haqidagi ramziy rivoyatni keltirib, o`z fikrlarini yanada ta`sirliroq bo`lishiga erishadi.

9-sinf Adabiyot darsligida ham “O`zbek adabiyoti tarixi” bo`limida Navoiy “Xamsa”sini o`rganishga 10 soat ajratiladi. “Hayrat ul-abror” dostonidan muqaddimadagi “So`z ta`rifida” bobi keltiriladi. Unda so`zni “guhari sharif” deya ulug`laydi. Olamdagi barcha narsa “Yaral” so`zidan paydo bo`lganligini e`tirof etadi. Tangri insonni sirli xazina qilib yaratganligini va uni so`zlash qobiliyati bilan hayvondan farqlab qo`yganligini ta`kidlaydi. Shuningdek, so`zni nazmda yoki nasrda ifodalash mumkinligini aytadi va nazmni bir mo``jiza sifatida ko`radi. Uni diltortar, yoqimli, jozibali deb biladi va Ollohdan o`ziga ko`ngil ochuvchi so`zlar vositasida chiroyli bir asarlar yarata olishi uchun madad so`raydi. Shuningdek, rostgo`ylik ta`rifida berilgan o`ninchi maqolatga ilova tarzida bitilgan “Sher bilan Durroj” masali matni keltiriladi. Unda to`qayda bir yirtqich sher bo`lganligi, u chumolilar talab o`ldirmasligi uchun bolasini tishida tishlab yurishi aytiladi. Biroq o`sha to`qayda yashaydigan Durroj sherdan qo`rqib, u yaqinlashib qolsa pirr etib uchar, sher esa qo`rqib bolasini tishlab olar edi. Sher Durroj bilan o`rtoq tutinmoqchi bo`libdi. “Mening senga dushmanligim yo`q, mendan qo`rqma, men bilan sirdosh, hamdam bo`l. Men ham sening kuylarinngni eshitib shod bo`lay, sening boshingga kulfat tushsa yordam beray”, - debdi. Ular do`st tutinibdilar. Sher uning sayrashini eshitib, kuyida yolg`on borligini sezib qolibdi. Unga yolg`on gapirishning oqibati yaxshilikka olib bormasligini uqtirmoqchi bo`libdi. Lekin Durroj uning pandlariga quloq osmabdi. Bir kuni u ovchining tuzog`iga tushib qolibdi va “Meni tutdilar, yordam bering”, -deb baqiribdi. Sher uning ovozini eshitsa ham uni galdagi yolg`onlaridan deb o`ylabdi va natijada Durrojning hayoti qirqilibdi. Masal, Navoiyning “So`zda, Navoiy, nima desang ham rostni gapir, rostni kuylagan ohanglarga tahsin ayt” degan o`z-o`ziga murojaati bilan nihoya topadi.

Demak, o`rta maktablarda bu kabi hikoyat va masallarni o`rganishning ahamiyati nihoyatda katta bo`lib, ular o`quvchilarning dunyoqarashini

shakllantirishga, ularda ezgu xislatlarni tarbiyalashga katta hissa qo`shadi.

2.2. “Shoh G`oziy” hikoyasida adolat tarannumi

Alisher Navoiy mulk-mamlakatni malik-podshosiz tasavvur qila olmaydi. Jumladan, «Xamsa»ning bosh qon tomirini ham mamlakat va podsho mavzuining rang-barang qirralarini badiiy talqin qilish tashkil etadi, desa sira xato bo'lmaydi. Mazkur masala «Xamsa» tarkibidagi dostonlarni o'zaro tutashtiruvchi oltin zanjirni eslatadi. Uning bosh xalqasi esa «Hayrat ul-abror»dan mustahkam joy olgan. Masnaviyning uchinchi maqolati «Salotin zikri»ga bag'ishlanadi. Ayni ana shu sahifalarda ulug' shoirning ibratli podsho (shohi G'oziy) qiyofasining yorqin chizgilariga duch kelamiz. Avvalo, aytish joiz, Alisher Navoiy nuqtai nazaridan podsholar ikkiga: shohi g'oziy (odil), shohi zolimga taqsimlanadi. Bunday tasnif shoirning qit'a-yu g'azallarida ham uchraydi. Ammo podshoga nisbatan fikrini yorqin ko'rsata olish uchun «vase'» - keng maydon deya ta'riflangan masnaviyning imkoniyatlari ancha qo`l keladi. Doston muallifi shoh qiyofasi manzaralarini chizishga jazm etar ekan, «Hayrat ul-abror»ning uchinchi maqolatida uning qismatida kuzatilishi muqarrar bo'lgan bir-biriga zid har ikkala nuqtani yonma-yon tasvirlashni ma'qul ko'radi.

Hotami adlingg'a sipehri baland,

«Rosti-yu rusti» bilan naqshband.³⁷

Podsholik tojining kimgadir muyassar bo`lishi—Allohning o'sha insonga ko'rsatgan behad marhamatidir. Ikki olam sarvari taxtni ravo ko'rgan bandasiga Hotam niginli (muharli) uzuk taqishni ham ravo ko'radi. Shu bilan barobar uning muhriga «rosti-yu rusti»ni naqsh etadi. Ya'ni Allahning hifz-u panohida bo'lishni istagan podsho davlatni adl-u amniyat bilan idora qilmog'i lozim. Shuningdek, muhrida o'yib yozilgan «rosti-yu rusti» — kuch adolatdadir, rostlik—halollik, rostlik—iymonlilik, insofga tayanishdir kabi dasturiy bitiklar odil podsho kunlik faoliyatining negizini tashkil etmog'i

lozim. Ikkinchi misra oxirida kelgan «naqshband» so'zining qo'llanishida iyhom—so'zning yaqin va uzoq ma'nolarini nazarda tutish san'ati mavjud. Ushbu so'zning birinchi talqinini «rosti-yu rusti» naqsh, zeb-u ziynat misol uzugingga o'yib yozildi, tarzida yakunlash mumkin. Alisher hazratlari komil naqshband edi. Buyuk mutafakkir shu tariqat soliki ekanligi bilan faxrlangan. Ikkinchidan, naqshbandiya tariqati ta'limotining ham podsho yelkasiga yuklaydigan mas'uliyati «rosti-yu rusti»dir. Alisher Navoiy ana shu haqiqatga ishora qilmoqda. Bobda shohlik tojini kiyib, bosar-tusarini yo'qota boshlagan, ma'rifat-u ma'naviyati past podsholar bilan qizg'in bahsga kirishiladi:

Bil munikim, sen dag'i bir bandasen,

Ko'pragidin ojiz-u afgandasen.³⁸

Ulug' shoir ming marta haq. Podsho ham yer farzandi. Uning jismida ham to'rt unsur muttahiddir. Ba'zan o'shalar jazaba qilib bosar-tusarini ham bilmay qolishi mumkin. Shuning uchun mutafakkir adib uni ogohlantiradi. Butun bob davomida mamlakat boshlig'ining fazilat-u nuqsonlarini badiiy tasvirlash mayli hukmronlik qiladi. Maqolatda o'rtaga qo'yilgan mulohazalarning tasdig'i sifatida o'quvchiga «Shohi G'oziy va tilla kampir» haqidagi she'riy hikoyat taqdim etiladi. Unda naql qilinishicha, Shohi G'oziyning yurishlaridan birida mamlakatda yashayotgan bir kampirning yakka-yu yagona o'g'li shahid bo'ladi. Taxt egallangandan keyin, podsho shahid bo'lgan yigit va uning onasini unutadi. Boquvchisini yo'qotgan kampir moddiy jihatdan ancha qiynaladi, kunining o'tishi og'irlashib qoladi. Kunlardan birida podshoning mushtipar ona yashayotgan yurtga kelishi haqidagi xabar kampirga yetadi va u ham hukmron istiqboliga chiqadi. Munkillagan, asosiga tayangan kampir Shohi G'oziyning yo'lini to'sadi va uni zolimlikda ayblaydi. O'tmish voqealarini to'g'ri eslay olmagan hukmdor shariat qozisiga murojaat qilib, masalani yetarli o'rganish lozimligini aytadi. Taftishlardan keyin, kampir haq bo'lib chiqadi. Bunday vaziyatdan noqulay ahvolga tushgan tojdor otdan tushadi, bir qo'lida yalang'och qilich, ikkinchi qo'lida esa oltin to'la hamyonni

³⁷ Ўша манба. 122-б.

³⁸ Ўша манба. 122-б.

tutgan holda kampirga qarata aytadi: Ey ona, o'g'lingiz xunini istang, xun bilan, istasangiz pul bilan oling! Podsho bilan sodir bo'lgan bunday hayratomuz manzara kampirga qattiq ta'sir qiladi. U shohga murojaat etarkan, aytadi: Sen odil inson ekansan. Agar men o'z tirikchiligimni o'zim tashkil qila olganimda edi, o'g'limning xunidan jo'mardlik va adolating uchun kechgan bo'lardim. Biroq, bugun mening iqtisodiy ahvolim tang bo'lgani uchun hamyonni tanlashdan boshqa choram yo'q. Hikoyatga shunday xotima yasaladi:

Zolni anjum kibi siymi ravon,
Zoli falakdek qilibon navjuvon.
Siym kuchidin bo'lubon siymbar,
Xalq laqab aylab anga «Zoli zar» .³⁹

Shohning otdan tushib, asoga suyangan kampir yoniga kelishi, uning arz-u dodini tinglashi, bir qo'lida qinidan sug'irilgan qilich va ikkinchi qo'lida tilla to'la xaltachani tutib turishi - bularning barchasi ulug' shoirning kitoblar sahifasida qolib ketgan shirin orzularidir. Alisher Navoiy ana shunday shohning saltanat surishini o'zining maktabdoshi, do'sti Husayn Boyqaro misolida real hayotda ko'rishni juda-juda istar edi. Biroq istak va hayotning, badiiy adabiyot sahifalari va saroy muhitining mutlaqo boshqa-boshqa narsalar ekanligi, ularni murosaga keltirish, yagona yo'ldan yurgizish noimkonligini yetuk ijodkor achchiq tajribalari qiyosida ko'p marta ko'rdi. Lekin orzu orzuligini qildi. Ulug' Alisher Navoiy qalbi orqali kitoblarning nurli sahifalariga ko'chib, insoniyat avlodiga ibrat bo'lish, zarra qadar bo'lsa-da, unga ta'sir ko'rsatishda davom etayotir.

Alisher Navoiyning shoh va shohlikka doir bunday mulohazalari «Hayrat ul-abror»dan o'lmas «Xamsa» tarkibidagi boshqa dostonlarga ko'chdigina emas, yangi-yangi talqinlarini topdi.

7- sinf Adabiyot darsligida “O`tmishdan sadolar” bo`limida Alisher Navoiy ijodini o`rganishga 4 soat ajratilgan. Unda adibning “Hayrat ul abror” dostoni

³⁹ Ўша манба. 132-б

shoirning olam va odam haqidagi fikrlarini badiiy aks ettirgan asar sifatida o`rganiladi. “Shoh G`oziy” hikoyatining matni keltiriladi. (Shuningdek, 7-sinfda “Sab’al sayyor” dostonidan “Mehr va Suhayl” hikoyasi ham berilgan).

“Salotin bobida” maqolati orqali odil shoh, insofli davlat rahbari qanday bo`lishi kerakligi tasvirlangan. Navoiy jamiyatda adolatning qaror topishini, mamlakat taraqqiysini odil hukmdor bilan bog`laydi. Agar podsho zolim, ma`naviy tuban bo`lsa, mamlakatda buzg`unchilik, aysh-ishrat, poraxo`rlik bolalab ketadi. Davlat ma`murlari o`z boshliqlari kabi fosiq, xalqni och bo`ri kabi yuz pora qiladi. Bunday hukmdorlarni qoralar ekan, shoir barchaga namuna bo`ladigan odil sulton-Shoh G`oziy obrazini eslatadi va maqolatdan so`ng u haqdagi hikoyatni keltiradi.

Shoh G`oziy yuz-ikki yuz kishilik askari bilan toj-taxt uchun kurash olib borib, oxiri dushmanlaridan qo`li baland keldi. Asli zotida taxtga daxldorlik borligi uchun Olloh unga hukmdorlikni ato etdi. U tufayli mamlakatda adolat qaror topdi, zulm daf etildi. Lekin adolat tushunchasi xalqqa yaxshilik qilish, zulm yo`lini kesish bilan chegaralanmaydi. Muallif bu masalaga kengroq yondashadi, uning mohiyatini hayajonli bir lavha tasviri orqali ochib beradi.

Kunlarning birida Shoh G`oziy sayrga chiqqanida bir telbanomo kampir uning yo`lini to`sdi va shohga da`vosi borligini aytib, uni o`zi bilan shariat mahkamasi - qozixonaga borishni talab qildi. Shoh shariat qonuniga bo`ysunib, mahkamaga borishga rozi bo`ldi. Kampirning talabi shariatga muvofiq kelsa, o`z qoniga da`vogar bo`lsa ham, uni qabul qilishini bildirdi:

”Shoh dedi:”Gar dav`i esa qonima,

Shar`iy esa minnatidur jonima”.⁴⁰

Shariat qozisi oldida ikkisi: da`vogar kampir va shoh o`tirdilar. Kampirning da`vosiga ko`ra shoh ko`p yillar oldin taxt uchun kurashib yurgan “qazoqlik” vaqtida bu kampirning yakka-yu yagona o`g`lini halok qilgan. Endi u qotilligi uchun javob berishi kerak.

Shariat qonuni bo`yicha har qanday qilinayotgan da`voga ikki tonug`, ya`ni

⁴⁰ Ўша манба.

guvoh keltirilishi kerak. Qozining bu talabiga ko`ra kampir shohning adolati va insofidan iborat ikki guvoh taklif qildi. Adolatli va insofli shoh, tabiiyki, aybiga iqrar bo`ldi. Shunda shariat qozisi hukm chiqardi: yo shoh qotillik uchun qatl etilishi, yoki da`vogarga xun to`lashi kerak. Butun boshli bir mamlakat va uning aholisi taqdiri o`z ixtiyorida bo`lgan shohning bu hukmga munosabatiga e`tabor bering-a:

“Yog`lig` ila bog`ladi bo`ynini rust,
Yuz hamyoning dog`i bo`ynini sust”,⁴¹

ya`ni ham o`z bo`ynini ro`mol bilan bog`lab kampirga tutdi hamda bo`yni yechilgan hanyonni uning oldiga qo`ydi va da`vogarga: “Agar qasos tiasang, mana, tig` bilan qonimni to`k, zar xohlasang, hamyonni ol.”- dedi.

Bu lavha orqali Navoiyning tom ma`nodagi adolatli hukmdor borasidagi orzusi bo`y ko`rsatadi. Odil hukmdor, avvalo, mamlakatda qonun hamma uchun teng bo`lishini ta`minlashi darkor. Ikkinchidan, qonunga bo`ysunishda u barchaga namuna bo`lmog`i kerak. Uchinchidan, adolat yo`lida jonidan ham kecha olishga kuch topa olsin. Ana shunday fazilatga ega shaxs bosh bo`lgan yurtida davlat ma`murlari ham yuqoridagi shariat qozisi kabi odil, fozil va diyonatli bo`ladilar. Shuningdek, hikoyatda insonning, hatto u shoh bo`lsa-da, taqdir qo`lida ixtiyosizligi, ojizligi yuksak mahorat bilan tasvirlangan. Bundan chiqadiki, taqdiri Yaratganning qo`lida bo`lgan inson faqat va faqat adolat va ezgulikni o`ziga mayoq qilib yashashi lozim. Shundagina u hammani, hatto o`ziga keki, adovati bo`lgan odamlarni ham rozi qila oladi. O`z xohish-istaklarini yenga oladigan ana shunday insongina bu dunyoda g`oziy, ya`ni g`olibdir.

«Hayrat ul-abror»dagi maqolatlarda insonni ezgu amallar sohibi bo`lib, noqisliklardan mosuvo bo`lishga da`vat etilar ekan, fikr tasdig`iga xizmat qildirilgan hikoyatlar qahramoni sifatida turli ijtimoiy tabaqa vakillari tanlanadi. Shohi G`oziy (Sulton Husayn Boyqaro), Anushirvoni odil, Sulton Muhammad Xorazmshoh, Iskandar, Bahrom singari hukmdorlar, Boyazid Bistomiy, Ibrohim Adham, Robia

⁴¹ Ўша манба.

Adviya, Xoja Abdulloh Ansoriy, Shayx Iroqiy, Imom Faxr Roziy, Abdulloh Muborak, Hasan Robi', Muhammad Porso, Xoja Abu Nasr kabi tasavvuf ahli namoyandalari, shuningdek, darvesh va mehnatkash inson timsoli bo'lgan o'tinchi chol, oddiy xalq vakili hisoblangan ikki vafoli yor, yuksak insoniy fazilatлами o'zida mujassamlashtirgan «qoni' javonmard» va boylikka hirs qo'ygan «tomi' jahongard» kabi obrazlar ishtirokida maydonga kelgan g'oyatda seimazmun badiiy lavhalarda insonni komillik rutbasida ko'rish g'oyasi hayotiy tamsillar bilan boyitiladi. Ko'rinadiki, ulug' shoir dunyoqarashicha, inson qaysi tabaqa vakili bo'lishidan qat'iy nazar, ma'naviy kamolot pillapoyalaridan odimlab bashariyatning komili darajasini egallashga haqli.

2.3. “Hayrat ul-abror” dostonining obrazlar sistemasi

«Hayrat ul-abror» obrazlar sistemasining xarakteri dostonning janr xususiyatlari va kompozitsion tuzilishi bilan bog'liq. Ta'kidlanganidek, «Hayratul-abror» qo'yilgan masalalarni vokeaviy sujet bayoni orkali yoritmaydi. Shu jixatdan karaganda u «Xamsa»ning boshka dostonlaridan tubdan fark kiladi. «Hayratul-abror»ning spetsifikasi unda katta epik obrazlar yaratish imkoniyatini bermaydi. Lekin shunga karamay, «Xayratul-abror»da juda kup va xilma-xil obrazlar, turli ijtimoiy tabakalarga mansub bulgan, turli xarakterdagi, ijobiy va salbiy, xajviy va majoziy obrazlar bor. Bu obrazlarni dostondagi masalalarning rivojlanishidagi, asarning kompozitsiyasidagi urniga karab uchga bulish mumkin:

1. Dostonning bosh qahramoni.
2. Maqolatlardagi tasviriy obrazlar — portret va xarakterlar.
3. Hikoya va masallardagi epik obrazlar.

Dostonning bosh qaxramoni — Navoiyning o'zi. Asarning mukaddimasidan tortib xotimasiga kadar shoir obrazi kitobxonning doimiy xamrohidir. Hatto

xikoyalarda bir necha daqiqagina «chekingan» bu obraz tezda, shu xikoyaning xotimasida, lirik misralarda, sokiya karata aytgan suzlari yoki kissadan xissa chikarishi bilan yana namoyon buladi, kitobxonni yangi-yangi masalalar, o`y-fikrlar, ziddiyatlar, kurashlar olamiga olib kiradi. Kitobxon bu obrazning sarguzashti, tashki kiyofasi yoki boshqa jixatlari bilan tanisholmaydi, lekin doimo uning kalbi va shuuri, hissi va tuygusi, xayajoni va armoni, shodligi va gazabi bilan birga buladi, xamma narsani u orkali bilib oladi, tushunadi, uylaydi, xulosa va yakun yasaydi. Navoiy butun murakkabligi, ziddiyatlari bilan gavdalanadi. Biroq shunga karamay gumanist, xalkparvar, ma`rifat arbobi, donishmand va murabbiy Navoiy obrazi kitobxonning kuz ungida ulugvor bir monument bulib gavdalanib turadi.

Shoir maqolatlarda ma`lum bir ijtimoiy-siyosiy, axlokiy-ta`limiy masala xakida fikr yuritar ekan, shu fikr-muloxazalarini konkretlashtirish maksadida tavsifiy obrazlar, portret va xarakterlar yaratadi. Bunday obrazlar masalani, uning turli jixatlari bilan birga tularok ochishga xizmat kiladi, asarning badiiy kimmatini, uslubini boyitadi, mukammallashtiradi. «Salotin» maqolatidagi zolim shohlar; «Hirqapo`sh shayxlar» maqolatidagi riyokor shayxlar va badbin zoxidlar, «Ilm sipehri» maqolatidagi musofir talabalar, «Qalam ahli» maqolatidagi johil amaldorlar, «Jahl mayining durdkashlari» maqolatidagi mayxo`rlar, «Xudnamolar» maqolatidagi xudbin va mutakabbir amaldorlar obrazi va boshkalar shular jumlasidandir.

Masalan, Navoiy o`n oltinchi maqolatda xudbin, mutakabbir va zolim feodal amaldor obrazini tasvirlab, uning portreti va xarakterini tipiklashtiradi, uning shakl-shamoyili, kiyim-kechagi, yurish-turishi, fikr-o`yi, fe`l-atvori va boshqa-boshqa tomonlarini kamrab oladi, satira va yumordan keng foydalanadi.

Amaldor o`zini botir, otini Raxsh, Raxshgina emas, balki yashin deb biladi, Rustamni ham nazar-pisand qilmaydi. Go`yo uning boshi ko`kdan to`rt ellik quyi, xolos. Aslida u zulmda yulbarsdek yirtqichdir. U o`zini qoplon deb biladi va it eti bilan tamaddi qiladi, kibr-havo uning qoshi ustida ajinlar paydo qilgan... Bo`ynida

tavqi bor, hatto ko`chadagi daydi it ham unga buyningga zanjir tushibdi-ku, deb ta'na kiladi, zeroki, uning buyni-dagi tavki la'nat tavkidir. Zulmda u Zahhok, ikki iloni halqa urib yotibdn... Muylovi ikki tomonga shoxlab chikkan tuzokdir, bu tuzoq nafsu havo qushlarini o`z domiga tushiradi. Ogzidan bitta xam ba'mani suz chikmaydi, chakagi esa lof urishdan charchamaydi... jig`asining patini boykushning boshidan yulib olganu uiga tovusning toji deb nom kuygan... Bo`rkining uchini ichiga bukkani, bu go`yo hirsu havas kushlariga bir oshyon bulgan. Agar to`ni ipakdan bo`lmasa kungli xazin buladi, ipagi Chin ipagi bulmasa, qoshlari ustida chin (ajin) paydo buladi... nozu xavas bilan katondan ko`ylak qiladi... Belbog`i ipak, to`ni oltin bilai ziynatlangan, etigining na'li zarjal, egari oltin, jibilgiri gavhar bilan ziynatlangan... Bu uning tashqi kiyofasi. Ma'naviy olami esa:

Munchasu yuz muncha zarofat bila,
Qaysi zarofatki, qabohat bila.

Dev jamolini paridek yasab,
Xorni gulbargi taridek yasab,
Jilva qilib shohida ra'no kibi,

Boda ichib gulruxi zebo kibi...
Necha lavand olida borchanajis,
Birida ne aqlu ne idroku his.

Nukta yoqardek anga behad debon,
Bexudu andoza xushomad debon.
Ul qilibon ushtulumu xayli rev,

Xayli shayotin, o`zi o`rtada dev...
Muncha fazilatlik emas erdi bas,

Kim ura olmay chog`ir o`lmay nafas...

Er-ichari borcha haromu harish,

Bu emak-ichmakdin anga parvarish...⁴²

Bu tavsifiy obraz mavjud muhitdagi beklarning, amaldorlarning haqqoniy tasvirlangan, umumlashtirilgan tipik obrazidir.

Ma'lumki, feodal hukmronlarning saroyi, zodagonlarning uy-joyi aysh-ishrat va mayxo`rlikning bir makoniga aylangan, maxsus mayxona ko`chalari vujudga kelgan edi. «Salotin» maqolatida podshohlar saroyidagi mayxurlik va maishatbozlikni qoralagan Navoiy «Hayratul-abror»ning o`n beshinchi maqolatida mayxo`rlikning zarar-ziyoni va bema`niligini har tomonlama fosh etib, mayxo`rlik balosiga muhtalo bo`lgan kishining kulgili portreti, ayanch va jirkanch holahvolini tasvirlaydi. Shoir mayxo`rga murojaat qiladi: qachongacha jaholat jomini ichasan, g`ururlanasan, fisq-fujur qilasan, o`limni, paymonang to`lishini ham uylamaysan... ko`chada bir telbadek ko`rinishing bilan bolalar boshingga tosh yordiradi, manglaying toshga tegib yoriladi, sallangning pechi buziladi, kishilarga qopag`on itdek xamla kilasan... Goh yikilib, gox turib, tugri kelgan joyga qo`l tashlaysan... qusuging sokolingni bulgaydi... it kelib yalab, uni pok kiladi. Mastliging tarqalgach, yana boda icha boshlaysan. Boshingdagi dastoringni, belingdagi aqchangni topolmaysan. Ulikdan kafan tama kiluvchi ugrilar tuningni echib olgan buladi. Qini qolib, pichog`ingdan ayrilasan, oyog`ingda bir poy kovushing qolib, ikkinchisini yo`qotasan. Etaging loy, olding shilta, oldingda ko`l... uyingni izlaysanu uzun-bepoyon ko`chadan o`zgani topolmaysan... A`zoyi badaning kaqshab titraydi, og`zing bemaza ta`m beradi... boshing aylangan, xushing yukolgan...

Shoir bu tasvirini tugatar ekan, shunday xulosalovchi misralar yozadi:

Har kishikim qilsa bu suvdin tarab,

Xona siyoh o`lmog`i ermas ajab.

⁴² Ўша манба.

Suv demagil oniki bir o`t erur,

Kim etti ko`k xirmanini kuydurur...⁴³

Navoiy maqolatlardagi masalalarni to`laroq yoritish uchun, fikr-muloxazalarini yanada konkretlashtirish uchun bir kurgazma — namuna sifatida maqolatlarga hikoyalar ilova kiladi. Shoir lirik ifodadan tavsifiy bayonga, tavsifiy bayondan epik voqeaga utadi. Kichik xajmli xi-koyada biror sarguzashtni suzlaydi, ortikcha tafsilotga berilmaydi, sarguzasht kupincha bir epizoddan iborat bulib koladi. Vokea kurash va konfliktlar bilan echiladi, shu kurash va konflikt fonida turli xarakterdagi obrazlar yaratiladi, ular tugallangan obraz darajasiga kuta-riladi. Shoh G`oziy, Xotami Toy, muysafid, Faxriddin Roziy va boshqalar shunday obrazlardir.

«Odob» maqolatida odobning ahamiyatini bo`rttirib ko`rsatish, kitobxonga yanada kuchliroq ta'sir etish maqsadida «No`shirvon» hikoyasini keltiradi. No`shirvon shunday odobli bo`lgan ekanki, kunlarning birida u yorining elkasiga qo`l tashlabdi-yu, ko`zi nargisga tushibdi, nargis unga odamning ko`zini eslatibdi va No`shirvon men ko`z (o`zga) oldida beodoblik kilayotirman deb qo`lini tortib olibdi.

«Vafo» maqolatida keltirilgan «Ikki vafoli yor» hikoyasida vafo o`limni engadi, vafodor ikki yor Amir Temurdan g`olib chikadilar. Shunga o`xshash «Chin go`zali» hikoyasida (un sakkizinchi maqolat) samimiy sevgi o`limni engadi. Xitoyda bir go`zal kiz bo`lar ekan. Hokon uni ko`rish, sevish u yokda tursin, xatto nomini tilga olishni ham man kilgan ekan. Lekin bu kizni sevgan yigitning qalbini engolmabdi. Hokon u yigitni imoratning tagiga bostiribdi. Shunda ham yigit yorining nomini zikr etar, uni tariflar ekan. Bundan ta`sirlangan Xokonning ko`ngli yumshab, yigitni ozod etishga majbur bo`libdi.

Xulosa

«Hayratul-abror» falsafiy-didaktik dostonning mislsiz ajoyib bir namunasidir. Bu dostonda Navoiy falsafiy, ijtimoiy-siyosiy va ahlokiy-ta'limiy qarashlarini yuksak san'atkorlik mahorati bilan badiiy mujassamlashtirdi.

Oyni yorug`, charxni demak baland,

Tab'i baland elga emas dilpisand, -

deb so'z sanatkorlari oldiga kitobxonlarning ehtiyojlariga mukammal javob berib, ularning fikri, didi va zavqini rivojlantiruvchi asarlar yaratish lozim degan talabni qo'ygan Navoiy «Hayratul-abror»da shu talabga to'la amal qildi. U kitobxonlarga yangi-yangi fikr-mulohazalar takdim qildi, ularning badiiy didi va zavqini oshirdi.

Navoiy lirik ifodani tavsif bilan, tavsifni epik bayon bilan uzviy bog'ladi, sintezlashtirdi. Bu esa asarning mazmunini to'ldirib, rivojlantirib bordi hamda uning badiiy qimmatini oshirdi. Shoir rang-barang tavsifiy va epik obrazlar yaratdi, bularning hammasi bosh kaxramon— Navoiy obrazi, uning tafakkuri va xis-tuygulari bilan bir tizimga birlashdi. Shoir dostondagi barcha masalalarni tazod usuli vositasi bilan yoritdi, hal etdi. Adolatni zulmga, himmatni baxillikka, qanoatni tamagirlikka, vafoni vafosizlikka, ilmni jaholatga, rostlikni egrilikka karama-karshi ko'ydi. Fikr-muloxazalargina emas, balki obrazlar ham shu zaylda bir-biriga qarama-qarshi qo'yildi. Shoir tazod usuli bilan birga tadrij (rivojlantirish), tanosib (parallelizm) va boshka usullardan, suzlarning va xarflarning yozilishi shakllaridan xam keng foydalandi, bu bilan mazmunni tuldirdi, boyitdi.

Navoiy boshka asarlarida bulgani kabi «Hayratul-abror»da xam badiiy til vositalaridan keng foydalandi. Dostonning deyarli xar bir baytida yangi-yangi badiiy obrazlar yaratdi. Shoir, ayniksa, o'xshatishni ko'p ko'llaydi. Uxshatish ma'lum bir fikr-tushunchani tasdik etish uchun xam, rad kilish uchun xam ishlatiladi. Kuyida tanosib va uxshatish asosida yaratilgan bir parchani ko'raylik.

⁴³ Ўша манба.

Shoir o`rinsiz (xushomad maksadida) qilingan himmatni rad etib:

...Ham yiborur la'l Badaxshon sari,
Ham keturur zirani Kirmon sari.
Xizrga etgach tutar obihayot,
Misr shakar reziga xabbi nabot.
IIIamni kunduz yorutur beadam,
Mehr ziyosiga beray deb madad.
Mushkii har kecha sochar bedarang,
Tun sochiga bermak uchun bo`yu rang...
O`yla bulutdekki quruq bog` uza,
Yog`may o`tub, suvni to`kar tog` uza..⁴⁴

deydi. Fikr quyukligi va badiiy mukammalligi bilan «Xayratul-abror»ning ko`pgina baytlari xikmatli suzlar darajasiga kutarilgan, ayrim saxifalar guyo butunlay xikmatli suzlar tizmasidan vujudga kelgan. Bu xikmatli suzlar xalq makollariga juda yaqin va o`xshashki, ayrim maqollar Navoiyning xikmatli suzlariga aylanib ketgan bulsa, shubhasiz, Navoiyning ayrim xikmatli so`zlari ham xalq maqollariga o`tib ketgan.

Shoir ota-onani hurmat qilish haqida gapirib, oltinchi maqolatda ajoyib istiora san`atini qo`llagani, ya`ni otani quyosh, onani oy deb atagani ham behad go`zal:

Boshni fido ayla ato qoshig`a,
Jismni qil sadqa ano boshig`a...
Tun kunungga aylagali nur posh,
Birisin oy angla, birisin quyosh..⁴⁵

⁴⁴ Ўша манба.

⁴⁵ Ўша манба.

Navoiy «Hayratul-abror»da xalq ijodining boshqa janrlari va usullaridan ham keng baxramand boʻlgan. Masalan, «Hayratul-abror»dagi «Hotami Toy», «Sher bilan Durroj», «Iskandar», “Shoh Gʻoziy” va boshqa hikoya hamda masallar xalk ijodi materiallari asosida yaratilgan. Navoiy xalq ijodiga xos sajʼ usulini xam qoʻllab, boblarning sarlavxasini qofiyali nasr usulida bitadi.

Xullas, mazkur dostonidagi maqolat, hikoyat va masallarning oʻrta maktablarda oʻrganilishi nihoyatda katta ahamiyatga ega boʻlib, ularda ifodalangan gʻoyalar orqali oʻquvchilarni insonparvarlik, adolat, xalqparvarlik, oliyhimmatlik, ilm-maʼrifat egallashga intilish, bir-birovga mehr-oqibat, ota-onaga hurmat, rostgoʻylik kabi umuminsoniy qadriyatlar asosida tarbiyalash imkonini beradi. “Hayrat ul-abror”da shoirning koʻpgina aforizmlari – hikmatli soʻzlari oʻrin olgan boʻlib, ular oʻquvchilarni maʼnaviy etuk, har tomonlama rivojlangan, barkamol insonlar sifatida kamol toptirishi shubhasiz. Navoiy oʻgitlari shunday badiiylik bilan hamon oʻz tarovatini saqlamoqda va hamma avlodlarga tarbiya masalalarida ajoyib maktab boʻlib xizmat qilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – engilmas kuch.- T: Ma'naviyat, 2009.

1. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. 20 jildlik. 7-jild. –T:, Fan. 1990.
2. Alisher Navoiy xamsasi. Ilmiy tadqiqotlar majmuasi. –T: Fan. 1986.
3. Alisher Navoiy. Hayrat ul-abror. – T: Adabiyot va san'at. 1989.
4. Alisher Navoiy. Xamsa. – T: Fan. 1960.
5. Fitrat. “Farhod va Shirin” dostoni to'g'risida. Ma'rifat. 1996. 7-28 dek.
6. Hayitmetov A. Temuriylar davri o'zbek adabiyoti. – T: Fan. 1996.
7. Hayitmetov A. Adabiy merosimiz ufqlari. – T:. O'qituvchi. 1997.
8. Hayitmetov A. Alisher Navoiy ijodini o'rganishning metodologik asoslari. O`TA.2001.2-son. 3-10-b.
9. Hasanov S. Navoiyning etti tuhfası. – T: Adabiyot va san'at. 1991.
10. Haqqulov I. Navoiyga qaytish. – T: Fan. 2007.
11. Husanxo'jaev I. Alisher Navoiy ta'lim-tarbiya haqida. – T: O'rta va oliy maktab davlat nashriyoti. 1963.
12. Jalolov T. Xamsa talqinlari. – T: Badiy adabiyot.1960.
13. Mallaev N. So'z san'atining gulto'ji. – T: Adabiyot va san'at. 1991.
14. Navoiyga armug'on. Maqolalar to'plami. 1-kitob. – T: Fan. 1968.
15. Navoiyga armug'on. Maqolalar to'plami. 3-kitob. – T: Xalq merosi. 2003.
16. Navoiyga armug'on. Maqolalar to'plami. 4-kitob. – T: OO`MTV. Nizomiy TDPU tavsiya etgan. – T: Fan. 2004.
17. Navoiy va ijod saboqlari. Maqolalar to'plami. – T: Fan. 1981.
18. Orzibekov R. O'zbek adabiyoti tarixi. O'quv qo'llanma. – T: Adabiyot jamg'armasi nashriyoti. 2006.

19. O`zbek adabiyoti tarixi. 5 tomlik. 2-tom. – T: Fan. 1978.
20. O`zbek adabiyoti tarixi. 3 tomlik. 1-tom. – T: Fan. 1978.
21. Qodirov V. Mumtoz adabiyot: o`qitish muammolari va echimlar. – T: Alisher Navoiy nomidagi O`zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti. 2009.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA

MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI



Al-Xorazmiy nomli Urganch davlat universiteti

Filologiya va san’at fakulteti

401- o‘zbek guruhi talabasi Tangriberganova Shukurjonning
bakalavr akademik ilmiy darajasini olish uchun yozgan
“Hayrat ul abror dostonidagi maqolat va hikoyatlarining o`rta
maktablarda o`rganilishi” mavzusidagi

Bitiruv malakaviy ISHI

Bajardi:
Ilmiy rahbar:

Tangriberganova Shukurjon
prof. S.R.Ro‘zimboyev

URGANCH-2012.

